

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAN‘AT FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»
Fakultet dekani
----- K.M. Gulyamov
«-----» -----2014 yil

«5140900-KASB TA‘LIMI(5211200-AMALIY SAN‘AT) YO‘NALISHI»
AS-401 GURUH TALABASI ERGASHEVA MADINA MUROD QIZINING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: KASB-HUNAR KOLLEJLARDA MAHALLIY XOM-
ASHYOLARGA BADIY ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASINI
O‘RGATISH**

_____ talaba M. Ergasheva
Ilmiy rahbar: «Amaliy sanat
va uni o‘qitish metodikasi»
kafedrası mudiri,
prof. _____ S.S. Bulatov

Taqrizchi: dots. _____ N. Tolipov

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Amaliy sanat va uni o‘qitish
Metodikasi» kafedrası mudiri,
Prof _____ S.S. Bulatov
« _____ » _____ 2014 yil

2014-йил

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1 BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAHALLIY XOM-ASHYOLARGA ISHLOV BERISHNING MILLIY, AN'ANAVIY ASOSLARI.....	8
1.1. Naqqoshlik san'at tarixi.....	8
1.2. Milliy an'analar asosida naqqoshlik san'atini rivojlanishining o'ziga xos tomonlari.....	22
2 BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAHALLIY XOM-ASHYOLARGA ISHLOV BERISH METODIKASI.....	33
2.1. Amaliy san'at darslarida ishlatiladigan hom-ashyolar.....	33
2.2. Amaliy san'at darslarida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish.....	39
3 BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAHALLIY XOM-ASHYOLARGA ISHLOV BERISH METODIKASI SAMARALI YO'LLARI.....	57
3.1. Naqqoshlikda ishlatiladigan xom ashyolardan foydalanishning o'ziga xos tomonlari.....	57
3.2. Mahalliy xom-ashyolarga ishlov berish metodikasi.....	87
XULOSA.....	90
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	92
ILOVALAR.....	94

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Yurtboshimiz I.A.Karimov "O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimnzning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim" degan edi.¹

Yangi fuqarolik jamiyati qurish sharoitida kasb-hunar borasidagi milliy an'analarni qayta tiklash, ularni zamonaviy yuksak texnologiyalar bilan uygunlashtirish, ta'limning barcha bo'g'inlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A. Karimov, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog'imiz kerak»² SHu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, otabobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at

¹ И.А.Каримов. Юксак маънавият енгилмас куч. Т.: "Маънавият", 2008, 7-8 бетлар. И.Каримов.

² И.А.Каримов. "Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари", Т.: "Ўзбекистон", 1995, 9-б.

namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. SHu ma'noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analar, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan³.

Qadimda odamlar yashayotgan maskanlariga, devor-u toshlarga ov jarayonlari, jang-u jadallar, bazmlar, tantanali marosimlarni aks ettirganlar. Jumladan, Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlari shundan dalolat beradi. Keyinchalik ayrim sabablarga bilan tirik mavjudodni aks ettirish ta'qiqlab qo'yildi. SHuning uchun tasviriy san'at o'rnini o'simliksimon, geometrik naqshli bezaklar egalladi.

Rang-barang o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o'zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustivordir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, uylarni ajoyib naqsh nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og'ushida bo'lishi, uzoq umr ko'rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar.

Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo'lgan.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Hayyom,

³ Каранг: “Халқ таълими” журнали, 1992 йил, 10-12 сон, 1-б.

⁴ Ремпель Л. Искусство Среднего Востока. Избранные труды по истории и теории искусств. М., 1978. С. 190.

Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar.

CHunki, muqaddas kitobimiz bo'lgan Qur'oni Karimda «Ollah go'zal va u go'zallikni sevadi», deyiladi. Demak, Islomning estetik nuqtai nazari go'zallikka oshno bo'lmoqdir. Ollah go'zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod qilgan olam ham, bandalarga hadya etgan noz-ne'matlari ham go'zaldir. Ibrohim Haqqiy aytadi: «Mavlo, ko'raylik, naylar, naylarsa go'zal aylar. SHunga muvofiq, Ollahning ism-sifatlarini vasf etuvchi so'zlarimiz, uning qudratini tamsil etuvchi binolarimiz, me'morlik obidalarimiz, qo'yingki, tangri irodasi, ism-sifati bilan bog'liq bu olamda nimaiki narsa bo'lsa, hammasi go'zal bo'lishi kerak. Arab imlosi, g'azal, bitiklar, naqshlar, me'moriy obidalar, tasviriy san'atning islamiy-tilsimiy turlari eshitish va ko'rish a'zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qobig'iga o'ralgan. Naqsh, chodraga o'ralgan ayolga o'xshaydi. Naqsh - haqqoniyatni qo'l bilan ushlab ko'rish emas, go'zallikning mohiyatini anglash, shu go'zallikni dilda tasdiqlash, chodra ortidagi holatga o'zni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir...»¹

O'tmishning biror yorqin «ziyo» zarrasi asrlar zimistonini yoritishi mumkin. Mustaqillikka erishgan xalqimiz san'atshunoslaridan madaniy meros xazinasiga munosib yodgorlik yoki yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur o'rganib mag'zini chaqish, ular tashkil etgan ijod pillapoyalaridan ko'tarilib yangi zamon madaniyati ravnaqiga xizmat etish kabi g'oyat mas'ul va e'tiborli ishlar ko'lami kutib turibdi. O'zi bir olam bo'lgan me'morlik san'ati va u bilan chambarchas bog'liq xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalardagi ijod namunalari o'rganish yo'lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud. Ko'p yillik izlanishlar natijasida, tabiiyki, xalq me'morlari, xalq ustalari taomiliga xos anchagina muammolar bor, ulardan biri, bezaklarni ramziy o'qish alifbosi tuzilmaganligidadir. Kitobni yozishdan maqsad shundaki, me'moriy bezak va amaliy san'at yo'nalishda tayyorlanayotgan kadrlarimizni jahon andozalari talablariga javob bera oladigan

¹ Гафур Ғулом . Ибтидодаги аҳд. Тафаккур журнали. 1994 №1. 53-54 б.

barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgandir. Buning uchun maktablarda, kasb-hunar kollejlarda va oliy o'quv yurtlaridagi o'quvchi-talabalarimizga ajdodlarimiz qoldirgan, ma'naviy merosimiz bo'lmish me'moriy yodgorliklar va amaliy san'at asarlaridagi bezaklarini ramziy ma'noda o'qiy olishga, undagi mantiqiy falsafiy g'oyalarni to'g'ri anglashga o'rgatish zarurdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin xalq sanati rivoji yangicha mazmun kasb etdi. Milliy merosimizni, an'anaviy milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, hunarmandlarga g'amho'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy bezak san'ati rivojida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari hamda hukumat qarorlarining mohiyati kattadir. 1997 yil 24 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari to'g'risida"gi farmoni joriy etildi.

Bu farmonga muvofiq xalq san'atini yoshlarga o'rgatish eng muhim vazifalardan deb hisoblanadi. CHunonchi, xalq amaliy san'ati eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasidir. U asrlar mobaynida shu tarzda xalq ijodi sifatida shakillanib, taraqqiy etgan. SHuni aloxida takidlash joizki, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlash mukammal tizimni shakillantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Ma'lumki, xar bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Zero ilim bobidagi izlanish insonni ma'naviy, ahloqiy – estetik kamolat sari etaklaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 24 fevraldagi 77 sonli qaroridan so'ng respublikamizning barcha viloyatlarida tasviriy, amaliy san'at va xalq xunarmandchiligi ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari barpo etildi.

Bu o'z o'rnida o'zbek xalq amaliy bezak san'atiga jiddiy etibor berishni, ularni xar tomonlama o'rganish, rivojlantirish, yosh avlodlarga san'atning sir asrorlarini o'zlashtirish, ularning estetik didini o'stirish xamda boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashni talab etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Kasb-hunar kollejlarda mahalliy xom-ashyolarga badiiy ishlov berish texnologiyasini o'rgatish orqali dars samaradorligini oshirish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Kasb-hunar kollejlarda Amaliy san'at mashg'ulotlarni tashkil etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Kasb-hunar kollejlarda Amaliy san'at mashg'ulotlarini mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

-Kasb-hunar kollejlarda mahalliy xom-ashyolarga ishlov berishning milliy, an'anaviy asoslari.

-Yangi pedagogik texnologiyalarning nazariy jihatdan amaliy san'at fanlarida qo'llanishini o'rgatish orqali ahloqiy, estetik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

-Amaliy san'at daslarida ishlatiladigan xom-ashyolar haqida ma'lumot berish haqida ma'lumot berish.

-Kasb-hunar kollejlarda mahalliy xom-ashyolarga ishlov berishning milliy, an'anaviy asoslari foydalanish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish.

Bitiruv malakaviy ish metodlari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar va xalq ta'limi vazirliklarining qarorlari, ko'rsatmalari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi o'zbek xalq amaliy san'atiga oid hukumatning qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar, o'zbek xalq amaliy san'atining milliy an'analari, buyuk olim va pedagoglar, sharq mutafakkirlarining badiiy ta'lim-tarbiya haqidagi fikirlari tashkil etadi.

1-BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAHALLIY XOM-ASHYOLARGA ISHLOV BERISHNING MILLIY, AN'ANAVIY ASOSLARI

1.1. Naqqoshlik san'at tarixi.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uyro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi (Xorazmlik naqqoshlar, «Majnuntol» Turarjoy Binosi Devoridagi Naqshning Bir Qismi. Buxoro, «Anor». Turarjoy Binosi Devoridagi Naqshning Bir Qismi. Buxoro. o'ishtlik masjidi, naqshning bir qismi, Jomiy masjidi, shift va ustun sharafasidagi naqshning bir qismi. Qo'qon. XIX asr, Kalontarov uyi, zaldagi naqshning bir qismi. Samarqand, XX asr, Kalontarov uyi, yotoqxona uyidagi naqshning bir qismi. Xayroboddagi masjidi, ustun (bolor)dagi naqshlar. Toshkent XX asr)

Naqsh — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir (Beshik , Samarqand, SHatranj doskasi. Buxoro, XIX asr, Egar. Buxoro, XX asr boshlari. turqavoq. samarqand, 1901 yil. Kursicha. Toshkent, XX asr o'rtalari. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, inkurustatsiya, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa Usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga

ma'lum bo'ldi. CHunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga: geografik o'rniga, ulkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirgiz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasaq anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Evropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa uzuzidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

O'zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, Suqd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondare viloyatidagi Fayoztepa (I—II asr), Dalvarzintepa (1 asr) budda ibodatxonalarini qazilmalaridan topilgan naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumenttal naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI—VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga muljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqshlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, ko'rishi, manzaralar hamda diniy tasvirlangan. Jonli mahluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta o'rtdi. Yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi. «Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va hodisalar ko'proq muhosasiz yo'l tuta borib, qat'iy ravishda shunday der edi: «Tangri yoki odamzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo'ladi», deb qo'rqitilgan. Jonli mavjudotlar suvratini chizish man etilishining ma'nosi shundaki, xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, hatto xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo'lidan kelmaydi, aks holda musavvir xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo'ladi».

Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duoafsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq amaliy bezak san'ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi. IX—X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duoafsunlar, tasbih va boshqalar naqadar mulligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. CHunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islmiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor choqida uyg'onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muhabbatini bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va harakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg'unlik, bo'sin va usullarini ajoyib qaytaqayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI—XII asrlarda O'zbekiston territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.

Girih—forscha, chigal, tugun degan ma'noni beradi. Handasiy naqsh — to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turi (8-4 raxli girih. Aylanadan tashkil topgan girih). Girih to'g'ri, egri va aralash chiziq'larga buysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi. O'zbek madaniyatining rivojlanishiga butun dunyoga mashhur olimlar — Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Beruniy, Firdavsiy va Rudakilar etishib chiqdilar. O'sha

vaqtda butun dunyoga mashhur bo'lgan (YUNESKO muhofazasidagi) Somoniy maqbarasi qurildi. U 1127 yili me'mor Arslon Muhammadxon boshchiligida oishirilgan oddiy g'ishtni har xil kombinatsiyalashtirib qurilgan. G'ishtlar yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan.

Xalq rivoyatlariga ko'ra, me'mor bu minorani qurganu, kuzdan g'oyib bo'lgan. Imorat yaxshi chukib, o'rnashib terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me'mor paydo bo'lib pardozi ishlarini boshlagan.

«XIII asrda yuksak ko'tarilgan milliy madaniyatni mongol bosqinchilari izdan chiqardi. 1219—1221 yillarda Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Marv bosib olinib tormor qilindi».

XIII asrda Chingizxon hukmronligida milliy san'at birmuncha izdan chiqsada, lekin butkul yo'q qilinmadi. Temur va temuriylar davrida esa o'zbek milliy xalq amaliy san'ati yuksak darajada rivojlandi.

«XIV—XV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari tarixida taraqqiy etgan feodalizm iqtisodiyijtimoiy formatsiyasi davrida feodal ishlab chiqarishga asoslangan o'ziga xos bir iqtisodiy madaniy ko'tarinkilik ro'y berdi. Bu davrni biz hozir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzodga o'xshash juda ko'p iste'dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san'atkorlar nomlari bilan bog'liq bo'lgan uyg'onish (Renessans) davri deb ataymiz. XIV—XV asrlarda Samarqandda tez sur'atlar bilan turli tuman inshootlar qurila boshlagan. Bu qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Zakavkaze, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo'lgan barcha ulkalardan kelgan me'morlar, hunarmandlar, ustalar, san'atkorlarni ko'rish mumkin edi. Ular o'zlari bunyod etayotgan inshootlarga butun bilimlari, hunarlari va san'atkorona mahoratlarini baxsh etganlar. O'sha davrda Samarqand va Movarounnahrning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko'p hashamatli tarixiy madaniy obidalarda O'rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O'rta SHarq xalqlarining o'ziga xos boy, sermazmun badiiy estetik merosining sintezi qorishib, uyg'unlashib ketgan edi, desak mubolaqqa bo'lmasa kerak».

Temuriylar xonligida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan erlardagi hamma ustalarni Samarqandga yig'di».

U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, naqqosh va boshqa ustalarni olib kelib ishlatgan. SHu san'at turlari qatori naqqoshlik ham tez rivojlana boshladi. Temur hukmronligi ostida juda ko'p bino, machit, madrasa va boshqalar qad ko'tardi. Undagi bezaklar yanada badiiylashtirildi. SHaharlar atrofi bog'u bo'stonga aylantirildi. Xullas u o'zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda katta hissa qo'shdi. Ayniqsa tasviriy san'at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobit sayyoralar, tog'lar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar va boshqalar aks ettirildi. O'sha davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuchqudratini, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat edi. Afsuski ko'pgina urushlar oqibatida hozirgacha qaerlardagi, turar joylardagi va jamoat binolaridagi tabiati bizgacha etib kelgan. Ayrim qoldiqlargina saqlanib qolgan. Ayniqsa oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, qushlar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan. «Tabiat manzaralari musavvir tomonidan shu qadar ustalik va chaqqonlik bilan ado etilganki, uning qo'li bamisoli qush parvozidan erkin harakat qilgan, shoir tili bilan aytganda, tutgan mo'yqalami musavvirning o'z barmoqlariday aniq harakat qilgan, usta bilan qil o'tmas do'st mo'yqalam go'yo uning amriga mahtalday»².

XIV—XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi, qurilgan binolarni koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi. CHunonchi, Samarqanddagi SHohi Zinda kompleksi, Ashratxona, Oq saroy, Kuhna Urganchdagi Turabekxonim maqbarasi va boshqalardir. XV asrda naqqoshlik san'ati yanada rivojlandi. Natijada naqqoshlikda kundal texnikasi paydo bo'lib rivoj topdi. Samarqandda Ashratxona, Oqsaroy maqbaralari va boshqa arxitektura yodgorliklarining ichki qismini kundal usulida bezaldi.

Kundal — arxitekturada devorga bo'rtib ishlangan bezak texnikasi. Me'morchilikda keng tarqalgan. Mo'yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo'rtma shakl oladi, ustidan bo'yoq va zarhal beriladi. Zamin zarqalga, asosiy bo'rtma naqsh elementlari turlituman ranglarga bo'yaladi yoki aksincha, bo'rtma naqsh zarhalga, zamin esa turli rangga bo'yaladi. XV asrdan boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi, Baland machitida jozibador namunalar saqlangan. O'rta erda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan.

XVI—XVII asrga kelib syujetlar deyarli chizilmay, balki kundal usulida naqshlar bilan bezash rivoj topdi. Kundal usulida Buxorodagi xo‘ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr), Baland machit (XVI asr), Abdulazizxon madrasasi (XVI), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII asr) va boshqalar bezaldi. Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o‘zining badiiyligi, harakatchanligi, o‘ziga xos originalligi bilan kishini hayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo‘lib voqelikni naqqosh tili bilai kuylayotgandek tuyuladi. Lekin XVII asrning oxiriga kelib, bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning haddan tashqari sarf etilganligi ko‘zga tashlandi. Ayniqsa bu sohada ijodiy izlanishlar kam bo‘lganligi sezildi.

XVI—XVIII asrlar orasida o‘zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta‘sir etdi. Bu esa milliy naqqoshchilik san‘atining rivojlanishiga ham ta‘sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari vujudga kelishi bilan san‘atkorlar bu shaharlarga yig‘ila boshladi. SHu vaqtdan naqqoshlik xalq amaliy san‘at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Tosh hovli, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi Buxorodagi Sitorai Mohixosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Hajmli planli naqsh kompozitsiyalar paydo bo‘ldi. Bu bezaklar nihoyatda nafisligi bilan ajralib turar edi. Naqsh san‘atining rangbarang rivojlanishi, har bir shahar va vohaning o‘ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo‘ldi. CHunonchi Farg‘ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar. Ular o‘zining kompozitsiyalari, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanadi.

XIX va XX asr boshlarida turar joy binolari, mahalla machitlari, saroy va o‘quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli butoqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. CHunonchi quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N.K.Romanovlar saroyi, A.A.Polovsevning uyi, Marg‘ilondagi Saidahmadxo‘ja madrasasi va boshqalar (Toshkentdagi xalq amaliy sag‘ati muzeyining ayvon peshtoqiga ishlangan naqshlar).

1990 yillar O‘zbekiston naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi san‘ati tarixida yangi bosqich bo‘ldi.

O'zbekiston naqqoshlik maktablarini asosan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xiva maktablari tashkil etmoqda. Ushbu maktablarning texnik, uslubiy va kompozitsion tomonlarida ko'pgina, o'xshashliklar bilan birga, farqli tomonlari ham mavjud. SHu sababli, naqqoshlik kompozitsiyalarida keng tarqalgan doira yoki aylana ko'rinishidagi naqshin gullarni "pargoriy" deb nomlashadi. Bu uslub deyarli hamma ustalarning asarlarida uchraydi. Lekin asrimizning boshlarida Toshkentlik Usta S.Xo'jaev ijodida u o'zining yuqori cho'qqilariga erishgan.

Farg'onalik ustalarning naqqoshlik asarlarida "buta", "guldastalar"ga keng o'rin beriladi. Lekin ular ushbu maktabda birmuncha yaxlit, naqshlarning orasi ochiq yirik-yaxlit ko'rinishlarda ishlanadi. Bundan tashqari, Farg'ona naqqoshligida Rishton kulolchiligiga xos moviy bo'yoqlar ko'p ishlanib, unda asosan o'simlik dunyosi naqshlari etakchilik qiladi. CHunki, aynan ularda mahalliy aholining "jannat bog'i" va kosmogonik, diniy falsafa haqidagi tushunchalari o'zining ifodasini topgan.

Samarqand va Buxoro yog'och o'ymakorligi ham ko'p tomonlardan Xiva maktabining an'analariga yaqin bo'lsada, ushbu viloyatlarning naqqoshligi o'zidagi kompozitsiya va ranglar majmuasi bilan Farg'ona — Toshkent maktabiga yaqindir. CHunki, naqqoshlik san'atidagi maktablar bir-biridan asosan naqshlar tizimi va har bir kompozitsiyaning tasvirlanishi bilan farqlanadi. Masalan, Toshkentda o'yiladigan gullarning orasi ochiq tasvirlar birmuncha erkin bo'lib ko'rinsa, Xorazmda birmuncha zich, novdalarning orasidagi bo'sh joy qoldirilmasligiga katta ahamiyat qaratiladi. Ularda ishlatiladigan ranglar deyarli barcha viloyatlar uchun o'ziga xos. Xiva maktabida ko'p xollarda me'morchilik koshinlarida keng tarqalgan mayda gul va novdalardan iborat islimiy naqshlar ko'p uchraydi (islimiy-morgula, islimiy-zanjira, islimiy-shobuta va boshqalar). O'tmishda xalq san'atining boshqa turlari kabi naqqoshligi san'atlarida ustalar asosan "Usta-shogird" an'anasi orqali tayyorlanadi. Bu an'ana xozirgi davrgacha saqlangan bo'lib, shu bilan birga san'atning ushbu turlariga sezilayotgan extiyojdan kelib chiqib, sohaga moslashtirilgan qator kollejlari ham professional ustalar tayyorlashga kirishdilar (O'zbekiston Badiiy Akademiyasining Toshkent shahari va viloyatlardagi tasviriy va amaliy san'at bilim yurtlari).

90-yillarga kelib, mustaqil ijod bilan shug'ullanayotgan "professional" xalq ustalarining aksariyati, markaz va uyushmalar tarkibiga a'zo bo'lgan xolda ijod qilmoqdalar. Respublika maxsus ijodiy-ishlab chiqarish "Usto" birlashmasiga a'zo bo'lgan ustalar Davlat ahamiyatiga molik yirik ob'ekt va qurilishlarda qatnashsalar, "Musavvir" va "Hunarmand" ilmiy-ishlab chiqarish markazlariga a'zolari uyda ijod qiladilar va maxsulotlarini mana shu markazlar orqali tar-qatadilar. Markaz esa ularga metodik yordam ko'rsatadi, ustalar ijodini keng omma orasida, Respublika va xorijdagi yirik ko'rgazmalarda tarqib qiladi va xokazo.

Xozirda, naqqoshlik san'ati o'zining avvalgi davrlardagi mavqeini qayta tiklamoqda. Toshkent shahari va Respublikaning boshqa yirik shaharlarida ko'rib, foydalanishga topshirilayotgan yoki qayta ta'mirdan chiqarilayotgan qator diniy va dunyoviy harakterdagi ko'rilishlarda unga bo'lgan talab kun sayin ortib bormokda. "Usto" birlashmasining Toshkent shahari va viloyatlardagi bo'linmalarida ishlayotgan ustalar, oxirgi o'n yil orasida ko'plab yirik ob'ektlarda muvaffakiyatli qatnashdilar: O'zbekiston Prezidentining "Oq saroy" qarorgoxi (1998 — 99), Oliy Majlisning yangi binosi (1997), Temuriylar tarixi Davlat muzeyi (1996), "Turkiston" konsert zali (1994), Toshkent shahar xokimligining yangi binosi (1996 — 98), O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi binosi (1995), Bekobod shaharidagi metallurgiya kombinatining oromgoxi (1993), "Algoritm" zavodi (1994), Rossiyaning Voronej va Moskva shaharlaridagi "O'zbekiston" va "Namangan" magazinlari (1989 — 92), O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi (2000), O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining qabullar uyi (1993), O'zbekiston Prezident Apparatning Matbuot markazi (1998), "YUnUsobod" tennis korti (1994), "Guliston" sport majmuasi (1997), Davlat "Sirk"i binosi (1999), "SHeraton — Toshkent" mehmonxonasi (1999), "Xotira maydoni" (1999), O'zbekiston Respublikasining Hindiston (2000), Germaniya (2000), Malayziya (1993) davlatlaridagi elchixonalarining binolari, Toshkent shaharidagi Sayilgox ko'chasidagi choyxona ayvoni, Samarqand viloyatidagi Imom al-Buxoriy, Farg'ona viloyatidagi Ahmad al-Farg'oniy majmualari (1998) va boshqalar. Naqqoshlik asosan gumbazlarni va galereyalar shiftini bezashda qo'llanilgan.

YOG'UCH o'ymakorligi asarlari orasida Toshkent shaharidagi Oliy Majlisning yangi binosi uchun ishlangan eshiklar diqqatga molik asarlardan. Ish jarayonida ko'plab yog'och o'ymakorlar qatnashdilar. Ularning orasida Toshkentlik M.Ibroximova (mashxur Usta N.Ibroximovning qizi) ijodiga talluqli eshiklardir. Xozirda ko'rilayotgan binolar o'lkamizning iklim sharoitlariga mos bo'lishi, dizayni bo'yicha jahon andozalariga javob berishi va kommunikatsiyaning zamonaviy asbob-anjomlari va isitish-sovutish tarmoqlari bilan ta'minlanmoni lozim.

M.Ibroximovanning Oliy Majlis binosi uchun ishlagan eshiklari Malayziyadan keltirilgan palma daraxtidan (subtropik zona) tayyorlangani sabab, faqatgina an'anaviy bezak vazifasini bajarib qolmay, zamonaviy boshqa talablarga ham javob berdi. Ular 2,5x8,2 m., qalinligi 40,5 sm. o'lchamda bo'lib, sirtiga asosan "o'simlik-islamiy", "gajaksimon" va "zanjira" naqshlarining turlari o'yilgan.

YUqoridagi ob'ektlardagi naqqoshlik ishlarini bajarishda M.To'raev, A.Ilxomov, S.Maxmudov K.SHoislomov, X.Nuraliev, S.SHukurov va boshqa yirik ustalar shogirdlari bilan qatnashdilar.

Ularning orasida ayniqsa, A.Ilxomov va X.Nuralievlar katta muvaffakiyatlarga erishmoqdalar. A.Ilxomovning Temuriylar tarixi Davlat muzeyi (1996) uchun ishlangan bezaklari K.Bexzod nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Usta ijodi davomida faqat Toshkent naqqoshligining an'analarini rivojlantirib qolmay, naqshlarning mumtoz namunalarini o'zlashtirgan xolda zamonaviy ko'rinishlarini ham kashf etmoqda.

Oliy Majlis binosining markaziy Majlislar zalida, Toshkent naqqoshlik maktabiga xos bo'lgan "kundal"ning xuddi Temuriylar tarixi Davlat muzeyi gumbazidagi varianti uchraydi. Keyingi yillarda gumbazlarni bezashda moviy rangdan umumiy fon tariqasida foydalanish ommalashib ketdi. Aslida, ushbu xolat zamonaviy jarayonda yangilik emas. XV —XVI asrlardagi Temuriylar davri ko'rilishlaridagi gumbazlarda boshqa ranglar qatorida moviy rang etakchilik qilgan. SHu bilan birga, "kundal" XIX asrning oxiri — XX asrning boshidagi ko'rilishlarda asosan tillaxalda bajarilardi. Xozir esa ustalarning texnik imkoniyatlarining kengayishi oqibatida tilla suvidan foydalanmoqdalar. Farg'ona naqqoshligida ham xuddi Toshkentda bo'lgani kabi, ko'p

uchraydigan elementlarni "mexrob", "madoxil", "bodom" va "bo'ta" naqshlari tashkil etadi. Undagi asosiy naqshlarning atrofida yordamchilari - "chorgul", "shobarg", "oygul", "zanjira" naqshlari turlari hamkorlik qiladi. Naqqoshlik san'atida ijod qilayotgan har bir usta, amaliyot davomida, mavjud an'analarni o'zlashtirib, ish jarayonida klassik naqshning juda ko'p ko'rinishlariga muvaffak bo'ladi. Naqshdagi bir arzimagan chizik ham naqshning shakl-shamoyilini yoki tasvirdagi mazmun mohiyatni tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. 90-yillardan boshlab ko'rilayotgan bir qancha madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish binolarida va maishiy harakterdagi buyumlardagi naqqoshlikda ushbu vaziyat namoyon. Ikkinchi jahon urushi kezlari xalok bo'lgan ham yurtlarimiz uchun kurilgan "Xotira maydoni" ham yirik ob'ektlar qatoriga kiradi.

hamma viloyatlari uchun maxsus ajratilgan bo'lib, ularning har birida urushga ketib, qaytmagan kishilarning ism-shariflari ko'rsatilgan.

¹O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar) Toshkent, SHarq, 2001. 77-81-betlar.

Loyixa mualliflari ob'ektda barcha viloyatlarning o'ziga xosligini ko'rsatishga harakat qilishgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi pavilonidagi ustunlarga o'yilgan ayrim naqshlarda, ularni ushbu maktab an'alaridan biroz uzoq ekanligi seziladi. Ular ko'prok Toshkent — Farg'ona maktabidagi naqshlarga yaqin. Qoraqalpog'iston yog'och o'ymakorligi uchun ko'prok, qozoq va turkman amaliy san'atida keng tarqalgan unsurlar harakterlidir. SHiftdagi xavoza, peshtoq, "kosh", vassalarga ham o'ymakorlik uslubida naqsh solingan. Lekin bunda, naqshlar tekislikning sirtini butkul qoplamay, lavhalarda beriladi. Ustunlarning bo'yi (2,5x3 m.), ayvonlarning umumiy balandligiga hamoxang tanlangani sabab, ular birmuncha engil va nozik bo'lib ko'rinadi.

"Xotira maydoni" Mustaqillik maydonidagi ochiq maydonda joylashgan. Ob'ektning atrofidagi tabiat manzarasi bilan bog'liqligini saqlab qolish maqsadida, undagi "kosh", "xavoza", "vassa" va boshqa qismlar uchun o'simlik-islmiy naqshining bir qancha turlari tanlab olingan. SHu orqali mualliflar tabiat bilan ob'ekt orasidagi o'zaro uyg'unlashuvni saqlab qolishga muvaffak bo'lganlar.

Bundan farqli o'laroq, Samarqand viloyatining CHelak tumanida qadrosлагan Imom al-Buxoriy majmuasida boshqacharoq manzara uchraydi. Majmua butkul me'morlik san'atining namunasi bo'lib, u o'z navbatida naqqoshlik, ganchkorlik va toshtaroshlik san'atlarining uyg'unlashuvidir. Masjid majmuadagi yog'och o'ymakorligi asarlarini yuqoridagi "Xotira maydoni"da bo'lgani kabi, ustun-peshtoqlar, hamda 3,60x5,5 metrdan iborat katta darvoza tashkil etadi. Darvoza M.Abrorov boshlik guruhning maxsuli bo'lib, u yog'och o'ymakorligining "choka pardozi" va "lola pardozi" uslublarida bajarilgan.

Ushbu ob'ektlarda nafaqat Toshkent shahari balki Respublikaning boshqa viloyatlaridan kelgan naqqosh ustalarning qatnashishlari oqibatida, ko'pgina unsurlar, kompozitsiyalar va uslublar aksariyat xollarda bir-biri bilan uyg'unlashib ketgani kuzatiladi.

Zamonaviy sayyoxlikning rivojlanishi oqibatida, sovrabop buyumlar ishlab chiqarish ham kun sayin ommalashmoqda. Bunda "Musavvir" ilmiy ijodiy ishlab chiqarish markazi a'zolari naqqoshlar - M.Turaev, A. Ilxomov, S.Maxmudov, K.SHoislomov, A.Askarov asarlarini eslab o'tish maqsadga muvofikdir. Bu ustalar nafaqat Respublika balki xorij ko'rgazmalarining ham faol qatnashchilari (Germaniya, YAponiya, SHveysariya, Turkiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Hindiston, YAponiya va boshqalar).

O.Fayzullaevning asarlarida an'anaviy o'simlik naqshlari bilan birgalikda geometrik naqshlarga ham keng o'rin beriladi. Ustaga 1995 yil 26 oktyabrda Toshkent shaharida o'tkazilgan birinchi Respublika xalq amaliy san'ati yarmarkasida "Xalq Ustasi" sertifikatini berildi. SHu bilan birga, 1994 yili Pokistondagi 46 musulmon mamlakatlari qatnashgan amaliy san'at ustalari festivalida O.Fayzullaev to'rtinchi faxriy o'rinni egallab qaytdilar.

A.Askarovning naqqoshlik asarlarida nafaqat vodiy, balki O'zbekistan naqqoshligining etuk ustalari O.Kosimjonov, T.To'xtaxo'jaev, J.Xakimov, Z.Kodirovlarning eng yaxshi an'analari davom etmoqda.

Ushbu manzaradan ko'rinib turganidek, oxirgi o'n yil mobaynida naqqoshlik san'ati haqiqatan ham rivojlanib, unutilib borayotgan ba'zi uslublarini qayta tiklayotgani, naqshlarning ro'yxati yil sayin kengayayotgani va islamiyning bir necha turlari uyg'unlashayotganining guvoxi bo'lmoqdamiz. Birgina yuqorida keltirib o'tilgan "pargori" uslubini olsak, u XIX — XX asrning boshlaridagi Toshkent maktabida ayniqsa mashxur bo'lib, so'nggi paytlarda esa deyarli ko'llanilmayotgandi. Xozir esa u qayta tiklandi. Xom ashyolardan mahalliyilariga bo'lgan talab katta: yong'oq, chinor, qayra-g'och, nok, o'rik. CHetdan keltiriladiganlari orasida Ruminiya buki, dub kabi yog'och sortlari ham ko'p ishlatilmoqda.

Xozirgi kunda, bozor iqtisodiyoti muammolari san'atning boshqa turlarida bo'lgani kabi naqqoshlik san'atiga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Bu esa, ustalarimizga zamonaviy sharoitda yashab, ijod qilishning yangi ko'rinishlarini izlashga sabab bo'lmoqda. Ular nafaqat ijodiy izlanishlarini davom ettirmoqdalar, balki internet va kommunikatsiyaning boshqa zamonaviy aloqa vositalari orqali

sohalariga taalluqli yangiliklar bilan tanishmoqdalar, xorijiy ko'rgazmalarda, xalqaro tashqilotlar tomonidan xomiylik qilinadigan turli loyixalarda, ko'rgazmalarda qatnashib, o'zlarining kasbiy maxoratlarini oshirmoqdalar (1995 yil Toshkent shaharida YUNESKOning loyixasi asosida tashkil etilgan xalq hunarmandlarining yarmarkasi, 1996 yili Parij shaharida o'tkazilgan Amir Temurning 660 yillik tantanalari doirasidagi ko'rgazma, 2000 yil Gannover shaharidagi butun jahon ko'rgazma va boshqalar).

Ustalar, yuqoridagilar bilan birga, buyurtma bo'lgan taqdirda, asosiy yo'nalishlaridan tashkari, iste'molchining talabidan kelib chiqqan xolda, hoxlangan o'lcham va uslubdagi buyurtmalar ustida ham ishlamoqdalar. Evropa andozalaridagi bufet, tryumo, servant, stol va stullarning to'plamlari fik-rimizning dalilidir. Ularda uyiladigan naqshlar an'anaviy yoki buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan chizmalar asosida, Evropaliklarning amaliy san'atiga xos naqshlar ham bo'lishi mumkin.

SHular bilan birgalikda, O'zbekiston xukumati xalq san'ati va hunarmandchiligi an'analarini asrab-avaylash borasida ham ko'pgina xayrli ishlarni amalga oshirdi. Ustalarning daromad solig'i va boshqa bojxona to'lovlaridan besh yilga ozod qilinishlari xalq hunarmandlari kqatorida naqsh o'ymakorligi bilan shuqullanadigan ustalarga qator qulayliklarni yaratmoqda.

O'zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz o'z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzildi. 1918 yili 5 dekabrda qadimiy arxitektura yodgorliklarini va san'at asarlarini hisobga olish va saqlash haqida dekret chiqarildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar. 30yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat T. Oybek nomli O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyidagi naqshlar. Uylari, saroylari va boshqa joylarni yog'och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1938 yili Moskvadagi Butun ittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi O'zbekiston restorani va o'z pavilonlarini bezashga naqqoshlarni safarbar qilindi. U erda ajoyib namoyonlar, qandillar, o'yma eshiklar, o'yma ganchlar va naqshlar bilan bezatildi. 1939 yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi

ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. SHu yillari «Bahor» konsert zalini ham naqsh, ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatildi. 40 yillarda qurilgan Muqimiy, Navoiy teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog‘och o‘ymakorliklari bilan bezatildi. Naqqoshlik san‘atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg‘onalik Saidmahmud Norquziev, Toshkentlik Tohir To‘xtaxo‘jaev, Olimjon Qosimjonov, YOqubjon Raufov, Jalil Hakimov, Xivalik Abdulla Boltaev, S. Xudoyberganov, X.Rahimov, Samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, Usta Madaminjon Husanov va boshqalar hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyapti. Ular avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan naqqoshlik san‘atiga katta hissa qo‘shdilar. Ular O‘zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (o‘roq va bolg‘a, kabutar, paxta, yulduz va boshqalar) yangicha g‘oyalar kiritdilar. Lekin o‘zimizning an‘anaviy o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy san‘atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o‘zbek milliy naqsh elementlari bo‘lmish nozik majnuntol nihollari, anor butog‘i, gulli butalar va boshqa o‘simliklarni tasvirladilar.

XX asrning o‘rtalarida naqqoshlik san‘ati yanada rivoj topdi. Devorlarga manzarali monumental tasvirning mashhur ustasi CHingiz Ahmarov SHarq miniatyurasining eng yaxshi namunalaridan hamda O‘rta Osiyo xalqlarining badiiy merosidan ilhomlanib ajoyib devoriy -rasmlar yaratdi. O‘zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san‘atining shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o‘zlarining yuksak badiiy mahorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqdalar.

1.2. Milliy anʼanalar asosida naqqoshlik sanʼatini rivojlanishining oʻziga xos tomonlari.

Uzbekiston xalqining tarixi, qadriyatlari, ilm-fani, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy oʻrganish va tahlil etish gʻoyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo boʻldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib oʻtgan yoʻlimizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, oʻtmishdagi boy anʼanalarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmogʻimiz kerak».² SHu maqsadda respublika hukumatining qator hujjatlari mazmuni Vatanimizni har tomonlama jahon andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilgan. Jumladan, yoshlarga taʼlim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy sanʼat namunalaridan, ajdodlar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur boʻlgan ajoyib amaliy bezak sanʼati namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. SHu maʼnoda Respublika hukumati tomonidan taʼlim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yil «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur» qabul qilindi. Unda: «Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim sohasidagi siyosati, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati va fan bobidagi koʻp asrlik anʼanalari, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi», - deyilgan.³

I.A.Karimov asarlarida maʼnaviy qadriyat va madaniyatning milliy mohiyatini chuqur anglab etish zaruriyati, SHarq mutafakkirlarining falsafiy-pedagogik merosi zaminida ulgʻaygan avlodning taʼlim-tarbiyasi, maʼnaviy merosi boʻlgan tajribasini qayta tiklash zaruriyati chuqur falsafiy ravishda asoslab berilgan. Ajdodlarning taʼlim-tarbiyaviy tajribasi va millits anʼanalari yosh avlod taʼlim-tarbiya olishlari zarur boʻlgan qadriyatlarga aylanishi lozim. Taʼlim tizimida qilinayotgan har bir islohotlarda

² Каримов И.А. Узбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иктисодий истикболнинг асосий тамойиллари. -Т.: Узбекистон, 1995.-95 б.

³ Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. -Т.: Шарқ, 1997. -64 б.

ajdodlarning amaliy bezak san'atiga oid tarixiy va milliy xususiyatlari, an'analari va urf-odatlarini to'liq hisobga olgan holda amalga oshirish talab qilinmoqda.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq davlat siyosati miqyosiga ko'tarilgan muhim vazifalardan biri - bu asrlar davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan ulkan, bebaho, ma'naviy va madaniy merosni qayta tiklashdan iborat bo'ldi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qadimda ajdodlar «Ustoz-shogird odobi» asosida yoshlarga hunar o'rgatish bo'yicha boy tajribaga ega bo'lishgan. Lekin, keyingi vaqtlarda ularning boy merosidan hamda tajribalaridan ta'lim-tarbiya muassasalarida keng va to'liq foydalana olinmayapti. Buning sabablaridan biri - «Ustoz-shogird odobi» an'analarini chuqur o'rgatilmayotganligidadir.

«Ustoz-shogird odobi» an'alariga oid ajdodlar tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham etarli deb bo'lmaydi. Bundan tashqari ularning boy tajribalarini hozirda hunar o'rgatilayotgan joylarda, chunonchi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, shaxsiy usta-shogird asosida o'rgatilayotgan ustaxonalarda «Ustoz-shogird odobi» an'analari to'liq o'rgatilmaslgi o'quvchi-yoshlarning axloqi, odobi va bilim darajasi, umuman ularning ma'naviyati shakllanishi ma'lum darajada to'liq bo'lmayapti. SHuning uchun ham ajdodlar tomonidan qoldirilgan amaliy bezak san'atiga oid an'analar va ma'naviy merosdan to'g'ri, oqilona va unumli foydalanish lozim.

Bu kamchiliklarni bartaraf etishda ajdodlarning qoldirgan ma'naviy xazinalaridan o'rinli foydalanib, yoshlarga kasb-hunar o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Asrdan-asrga, ajdoddan-avlodga o'tib kelayotgan ulug' ajdodlarning amaliy bezak san'atiga oid milliy-ma'naviy merosi jahon sivilizatsiyasi durdonalarini tashkil etar ekan, uning shaxs kamolotidagi ahamiyati ham cheksizdir.

Ilmiy tahlillardan ma'lum bo'ldiki, o'tmishda har bir hunarning ajdoddan-avlodga o'tishi o'rtasida o'ziga xos jihatlari mavjudki, bular faqat shu hunar egalariga xos bo'lgan jihatlardir. SHuningdek, har bir shahar, viloyat va tumanlarda kasb-hunarning o'rgatilishi ajdoddan-avlodga o'tishi, mahsulotlarning ishlab chiqilishi hamda ularning sotilishi o'rtasida ham o'ziga xoslik mavjudligi ma'lum bo'ldi.

Har bir xalq kelajak avlodlariga o'zidan qoldirgan betakror hunarlari bilan qadrlangan. O'zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo'lgan. Masalan, Andijon

viloyatidagi SHahrixon, Samarqand viloyatidagi Urgut, Farg‘ona viloyatidagi Qo‘qon, Namangan viloyatidagi CHust kabi shaharlarda amaliy bezak san‘atiga katta e‘tibor berilgan. Hunarmandlar o‘tgan davrlarda mahallalarga bo‘linib yashaganlar, chunonchi zargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi deb yuritilgan. O‘sha davrlarda misgarlik, bo‘yrachilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravazoslik, kulolchilik kabi mahallalar ham mavjud bo‘lgan. Masalan, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Buxoroda bo‘yrachi mahallasi bo‘lib, u erda bo‘yra to‘qiydigan ustalar yashagan. Bo‘yrachi mahallasida 120 ta oila yashagan.

Har bir hunarmandchilik mahallasidagi qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida raqobat bo‘lgan. CHunki, kimning mahsuloti sifatli bo‘lsa, xalq o‘shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. SHuning uchun ham har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga intilgan. Har bir ustaning alohida-alohida rastasi bo‘lgan. Odatda bozorda bozor begi bo‘lgan. U barcha rastalarga keltirilgan mollarni kuzatib, ularga narx belgilab chiqqandan keyingina savdo-sotiq boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori kasodga uchragan.

Usta o‘tmishda hunarmandlarning eng bilimdoni hisoblangan. CHunki, u madrasada tahsil olgan bo‘lib, adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi bilgan. O‘sha davrlarda usta shogirdlikka o‘z farzandini yoki qarindoshlaridan birini olgan. U shogirdlikka bolalarni 7-8 yoshdan olgan. O‘qish-o‘rganish 7-12 yillar atrofida bo‘lgan. Ustozi shogirdlari bilan kunduzi ishlab, kechqurun esa ustoz rahbarligida shogirdlari savod chiqarishgan. SHogirdlar o‘z ustozlaridan geometriya va kimyoni ham o‘rganganlar. SHogirdning qo‘lidan mustaqil ish kelgandan keyingina ustalar uning ishlarini muhokama qilishib, so‘ngra usta nomini berganlar.

Ustaning o‘g‘li ota kasbini yoshlikdan o‘rganib borgan. Bu esa, uni kelajakda yaxshi hunarmand bo‘lib etishishiga zamin yaratgan. Ustaning farzandi bo‘lmasa, u bu kasbni eng yaqin qarindoshlarining farzandlariga o‘rgatgan.

Xullas, kasbning ajdoddan-avlodga meros qolishi va o‘tishi an‘ana hisoblangan. Ustoz shogirdga qattiqqo‘l va talabchan bo‘lgan. CHunki, har bir hunarni o‘ta nozik did va sabr-toqat bilangina o‘rganish mumkin bo‘lgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdan pokizalikni, ish vaqtida

chalg'imaslikni, egri va noma'qul ishlarga yaqin yo'lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy talab qilganlar.

O'zbek ustalaridan biri - ganch o'ymakori usta Usmon Ikromovning hayot yo'li ibratli bo'lgan. YOsh Usmon usta Rasulxojining qo'lida 8 yil ishlaydi. Besh yilgacha haftalik haqi 10 tiyindan oshmagan. Har payshanba kuni Rasulxoji shogirdi qo'lga 10 tiyin bergan. Usmon pulni olib bozordan onasi va ikki singlisiga egulik olgan.

Oltinchi yiliga o'tganda Usmonning haftalik ish haqi 50 tiyinga, sakkizinchi yilga o'tganda esa, kundalik ish haqi bir so'mga chiqdi. Bu paytda u imorat ishidagi oddiy cho'pgarlikdan tortib, g'isht terish, suvoq, ganch o'ymakorligini mustaqil bajara oladigan bo'lgandi. Nihoyat sakkiz yil deganda Usmon ustasi Rasulhojidan oq fotiha olib, usta nomiga sazovor bo'lgan.

Buxorodagi hamma ganchkor ustalarga ganch mahsulotlari sotadigan boylardan biri Abduqodir bir kuni usta Hayotni chaqiradi va yangi uyni ganch bilan bezamoqchiligini aytadi. Usta Hayot esa, bu ishni 22 yoshli SHirin Murodovga topshiradi. Bu ish SHirinning birinchi mustaqil ishi bo'ldi. SHirin mehmonxona bezaklariga oddiy bejirim nisbatlarini saqlagan holda bir butun ko'rinishni beradi. U mehmonxona va ayvonlarni chiroyli (bejirim) bezaydi. Undagi.o'yma ganchlar juda ajoyib, mayin chiqqanligi sababli ustalar orasida hurmati yanada oshadi. Usta Hayot kunlardan bir kun SHirinni oldiga chaqirib: "Men sendan xursandman endi mustaqil ishlayversang bo'ladi",-deydi. Azaliy odat bo'yicha unga ustalar o'rtasida usta nomini berishadi. SHirin Murodov shundan so'ng xalq o'rtasida usta degan sharaflı nomga muyassar bo'ladi.

O'zbek me'morlari yaxshi yashashi uchun har jihatdan qulay, shinam, chiroyli uylar qurganlar. O'zbeklarning hovli-joyi tugal bir me'moriy majmuani tashkil etib, o'ziga xos sharqona fayzga ega bo'lgan. Bu qurilgan uylarni bir-biriga uzviy qilib qurilishi va bezalishi bir san'at darajasida bo'lgan.

YOgoch o'ymakorligi bo'yicha ishlayotgan shogird ustaning uyida yoki o'zining uyida turgan. SHogirdni yaxshi va puxta o'rgatish uchun avval uni mehnatga o'rgatgan va shu hunarga tabiiy holda qiziqishini oshirgan. Buning uchun ustoz shogirdiga uyidagi mayda-chuyda uy ishlarini buyurgan. Keyin esa, ustaga asbob-uskunalarni olib

berib turish yoki xom ashyoni tayyorlab turish, keyinchalik esa eshik, Derazalarni, ustunlarni o'rnatishga va naqshlarni o'yishga o'rgatgan. 3-4 yillardan so'ng yaxshi tajribali shogirdiga usta pul ishlab kelish uchun 15-20 kunga ruxsat bergan.

SHogirdga usta nomini berishning o'ziga xos jihatlari va o'ziga xos urf-odatlari bo'lgan. Bu tantanaviy kecha shogirdning ota-onasi uyida yoki usta uyida o'tkazilgan. Kechada shogirdning qarindoshlari, ustozning qo'lida ishlayotgan boshqa shogirdlar, ustalar, mullalar ishtirok etishgan. Ustalarning kattasi -oqsoqol yoki ustakalon uning yordamchisi poykor - usta nomini olayotgan shogirdning boshiga salla o'ragan. CHopon kiygizilib, beliga qiyiqcha boglangan va qiyiqchaga arra yoki tesha qistirib qo'yilgan. Uni usta va do'stlari tabriklaganlar. Keyin katta usta dasturxondan yopgan nonni olib kechaning sababchisiga qarab: «Borsang ham o'zingni kuygan kulchangni ko'rsatgin»,- deb non bergan. Bunday urf-odatlarning har xil turlari bo'lgan. Ba'zi urf-odat bo'yicha bo'lajaq ustaga biror bir uyni mustaqil bezash topshiriladi. Uyni bo'lajak usta bitkazgandan so'ng, boshqa ustalar uning ishini tekshiradilar va baho beradilar. Agar ustalarga ma'qul tushsa, unga «usta» degan unvon berilgan. SHundan so'ng yosh ustaga boshqa shaharlarga borib ishlashga ruxsat berilgan yoki ba'zi yosh ustalar o'z ustasiga «xalifa» bo'lib, uning boshchiligida ishlab yurganlar.

Ustalar oqsoqoli etib shahardagi eng tajribali ustalardan biri saylangan. Agar oqsoqol biror nohaq ish qilib qo'ysa, unda biror majlisga oqsoqolning yordamchisi borgan yoki hamma ustalarni yig'ib qayta oqsoqol saylashgan. Buxoroda esa, oqsoqolni saylash boshqacharoq bo'lgan. Ustalar Buxoro xoniga maxsus ariza yozar edilar. SHundan so'ng Buxoro xonidan «sarpo» va maxsus qaror, ya'ni «yorliq» olingan. Xalqqa qarorni o'qib, yangi bo'lgan ustaga sarponi kiydirganlar.

Buxoroda XIX asr oxiri XX asr boshlarida duradgorlar boshlig'i usta G'ulom, O'ratepada esa usta Karim Kajorboshi (usta Abdukarim Abduholiqov) bo'lgan. O'ratepalik xalq ustalarini YUqori Zarafshon qishloqlarida masjid, madrasa, turar joy binolarini bezash uchun taklif etganlar. Ular naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik va boshqa ishlarni bajarganlar.

Ustalar uyushmasi turar joylarga ustalarni ishlashga yuborgan. Ularga ish haqi tariqasida ishlagan joylarida kiyimlar, qo'y, sigir, echki, er yoki pul berilar edi. Ustalar

orasidagi o'ziga xos jihatlaridan biri - bu o'zaro musobaqalar o'tkazish bo'lgan. Ularning ishlari ko'rgazma shaklida o'tkazilib, katta ustalar tomonidan baholangan.

Masalan, O'ratepaning ko'k Gumbaz mahallasida Mavlono Eshon maqbarasining ikki tabaqali o'yma eshigini yasash va bezash ishini usta Karim va Abduqodir Xorrotlarga topshirildi. Ular bittadan eshikni o'yib bezatdilar, bu eshiklar bir qancha ustalar tomonidan baholandi. Usta Abduqodirning eshigi 70 ta oltin tanga va usta Karimning eshigi esa 100 ta oltin tangaga baholandi.

Usta Karim yasagan va bezagan eshikning yuqori baholanishining sababi, eshikning yuqori yarim doira qismi naqsh kompozitsiyasi bilan bezatilganida edi. Abduqodir usta yasagan va bezagan eshikning faqat tepa qismi uchli bo'lib, unga deyarli naqsh kompozitsiyasi bilan ishlov berilmagan.

Naqqoshlik texnologiyasi ajdoddan-avlodga o'tib kelgan. Qadimda naqqoshlar naqsh yaratish sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar, ularni faqat shogirdlari bilgan. SHogirdlar ham usta bo'lgandan so'ng, o'z shogirdlariga o'rgatgan. SHunday qilib, naqqoshlik kasbini an'ana tariqasida ajdoddan-avlodga o'tkazib rivojlantirib kelganlar.

O'rta Osiyoda boshqa hunarlar kabi zardo'zlik ham juda keng rivojlangan. Zardo'zlik hunari ajdoddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelgan. U haqidagi ma'lumotlar 2-ilovada keltirilgan.

Hunar o'rganishning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, bo'lg'usi o'ymakor usta madrasada tahsil ko'rgan bo'lishi, she'riyat va musiqa sirlaridan voqif bo'lishi, hatto musiqa asboblarini biroz bo'lsa ham chala bilishi shart qilib qo'yilgan. Ayrim ustalar o'z shogirdlari uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdan pokizalikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, egri va noma'lum ishlarga yaqin yo'lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy talab qilganlar.

Mashhur me'mor - usta A.Haqqulov o'zining⁴ «Ta'mir san'ati» kitobida sevimli ustozini Usta SHamsining shogirdlariga bo'lgan munosabatini shunday xotirlaydi: «O'smirlik yillarimda, xalq amaliy bezak san'atiga mehr qo'ygan yaqin do'stlarim, ya'ni padaribuzrukvorimdan meni shogirdlikka so'rab, kelajakda mening me'morchilik

⁴ Булатов С.С., Юлдашев Х.А., Турдиева Ш.Э. Одобнома. (Академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун қўлланма). -Т.; Низомий номли ТДПУ, 2002.-30 б.

asboblarimga sohiblik qilsin, degan ezgu istaklarini bildirdilar. Ular shu kundan boshlab me'morchilikning barcha sir-asrorlarini menga o'rgata boshladilar. Usta SHamsi o'ta kamtarin, oddiy, kamsuqum inson edi. Ammo, u shogirdlarini jondilidan sevardi. YUragimizdagi gapni ochiq aytadigan bo'lsak, u bor mehri, ilmi va aqli-zakovatini shogirdlariga bag'ishlar edi. Men ana shunday zukkota'b va hushsuhan inson panohida kamolga etganimdan haligacha faxrlanaman.

Ha, Davlat mukofoti laureati, Mehnat ordeni sohibi, Uzbekistonda mashhur xalq ustasi Usta SHamsi xalq amaliy bezak san'atining barcha murakkab jihatlarini juda chuqur bilar edi. U shogirdlaridan ham xuddi shuni talab qilar, erinchoq, ishga engil-elpi qaraydigan, go'zallikni sevmaydigan, tarixiy obidalarga mensimay ko'z tashlaydigan yigitlarni jini suymasdi. Men bu kamtar insonning yoqimtoy, nuroniy siymosini tasvirlashda amalga oshirgan ishlarini, shogird tarbiyalashdagi g'ayrat-shijoatini butun xayolimdan gavdalantirarkanman, Usta SHamsi G'ofurov kelajak uchun, go'zallik uchun, uning qadri uchun, ezgulik uchun qanchalik qaygurganligini yaqqol tushunib turibman. Men shogird sifatida hamisha bu fidokor inson oldida burchliman. Xalq madaniy merosini asrab-avaylashga e'tiborning oshayotganligi Usta SHamsi singari xalq ustalari an'analarini kun sayin rivojlantirishni, shogirdlar tarbiyalashda g'amxo'rlikni kuchaytirishni toqazo etadi".

Ustoz degan nomni olish qiyindir. Bu sharaflı nomni olish hammaga ham nasib etmagan. Bu ulug' nomni olish uchun ko'p yillar davomida murakkab sinovlardan o'tishi lozim bo'lgan. Ko'plab hunarmandlar orasida bu sharaflı nomga kamdan-kam inson muyassar bo'lgan.

Turkiy xalqlar qadimiy madaniyatining jahon taraqqiyotidagi o'rni salmoqlidir. Xuroson, Movaraunnahr, Afrosiyob, So'g'diyona, Marokant, Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo'lib, tabarruk bu zaminda Ahmad YAssaviy, Al-Beruniy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, SHiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amur Temur va temuriyzodalardak jasur o'g'lonlar dunyoga keldilar. Ular o'z xalqining baxt-saodati, madaniyati uchun jisman va ma'nan kurashdilar. SHuning uchun ham jahon ahli ularning ezgu amallarini olqishlab, hanuz

tabarruk zotlar deya o'z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa yoshlarning tarbiyasiga, hunar va ilm olishiga katta e'tibor berganlar va bunga doimiy ravishda chaqirib keldilar. Mutafakkirlar «Bir yigitga etmish hunar oz», deb bejiz aytmaganlar. Ular: «Ey, farzand, agar oqil va dono bo'lay desang, hunarmand bo'lishni o'yla. Hunarmand bo'lsang izzat va hurmatga erishasan, agar hunardan bebahra bo'lsang, quruq, soyasiz daraxtga o'xshab qolasan. Ey, farzand, aqlli, farosatli va ilmu hunarli kishilar bilan do'st bo'l. Hunarsiz kishida hosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, ilmu hunar o'rganishdan uzoqlashma», deb ta'kidlashgan.⁵

Hunar o'rganib, ilmu odob egasi bo'lgan odam olamda o'z o'rnini topadi. Mehnat qilish va uni elga manzur etishning ham o'ziga yarasha odobi bor. Siz quyida keltirilgan xalq donishmandlarining pandu nasihatlariga amal qiling deyiladi: «Har bir ishni halol bajarib, oxiriga etkazing. «Mendan ketguncha...» tariqasida ish qilmang, ishni qo'l uchida qilishdan saqlaning, chunki bunday odamlarning xalq o'rtasida obro'-e'tibori bo'lmaydi.

Qo'lingizdan kelmaydigan ishga aslo kirishmang, bunday ishni oxiri hijolatchilik va beburdlik bilan tugaydi. Xalqning «chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin» degan o'gitiga amal qiling. Ko'pchilik bilan mehnat qilganda, o'zingizni orqaga tashlamang, yudingizni birovga solmang, g'irromlik va mug'ombirliq qilmang.

Hunarsiz kishi foydasiz bo'lib, na o'ziga na hech kimga nafi tegmaydigan tikonli butaga o'xshaydi. Hunarsiz kishini xuddi tirik murdaga ham o'xshatish mumkin. Agar sizga biror hunarli kishi uchrasa, uni mahkam ushlang, uning hunarini yaxshilab o'rganing. Hunardan yaxshiroq narsa yo'qdur va donishmanddan ulug'roq narsa yo'qdur, sharmdan yaxshiroq zavar yo'qdur va badxo'ylikdan yomonroq dushman yo'qdur. Hunarni yoshlikda o'rganish hamda har bir daqiqani bekorga o'tkazmaslik kerak. «YOshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir», degan naql bejizga aytilmagan.

«Ey farzand, sen ham hunarni donodan o'rganmasang, nodondin o'rgang'il. Barcha katta, kichikka hunar o'rganmoq vojibdir, nedimkim kishi hunar o'rganmoq

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. -Т.: Ўзбекистон, 1995. -95 б.

bilan o‘z hamrohlaridan baland martabada bo‘lur. Chunki, o‘zingda, o‘z tenglaringda ul fazilatni ko‘rmasang, o‘zingni ulardan baland ko‘rasan va ular seni o‘zlaridan baland martabada bilurlar. Hunarmand kishi ularkim fazli va hunar sabab bilan qadr va martabasi o‘zgalardan baland bo‘lg‘on ekanini bilib fazl va hunarga avvalidan ziyodroq harakat qilg‘ay va burung‘idan ziyodroq fozil va hunarmand bo‘lg‘aytHar kishini bundoq qilsa, tezda xalqning orasida aziz va ulug‘ bo‘lg‘ay. Bas, buni bilg‘on kishi fazl va hunardin qo‘l tortsa, bu aqlsizlik nishonasidir. Hunar o‘rganmoqda mehnat qilmoq, badanni yalqovlik, ya’ni bekorchilikdan qutqarmoq foydalidir. Nedinkim bekorchilik badanning fasod va bemorlig‘iga sabab bo‘lur».⁶

Xullas, hunar ado bo‘lmas boylikdir. Xalqimiz va uning donishmandlari asrlar davomida hunar haqida to‘plagan tajribalarini axloqiy va falsafiy fikrlarini qisqa satrlarda badiiy ifoda etganlar. Bu qisqa satrlarda bir dunyo ma’no mujassam.

Donolar yoshlarga hunar haqida quyidagi nasihatlarini beradilar: «Bir donishmand farzandiga shunday pandu nasihat qilardi: Aziz o‘g‘lonlarim hunar o‘rganinglar, zeroki, mol dunyoga ishonch yo‘q va oltin-kumush safarda xatarlidir, qaroqchi o‘g‘irlab ketadi. Ammo hunar qaynar buloq, tugalmas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo‘lsa, qayg‘usi yo‘qdir, chunki hunarning o‘zi davlatdir.

Hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning to‘ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi».⁷

Olimu fozillardan Lurramiy aytadi: «Bir qari chol kishi har vaqt yoshlarga: "Bolalarim, yoshlikni g‘animat biling, faqat o‘yin-kulgi, kayf-safo bilan eshlik davringizni zoe etmang, o‘qing, o‘rganing, ilmli, hunarli bo‘ling. Agar yoshlik davringizda o‘zingizni tutib qolmasangiz, keyin qattiq pushaymon qilasiz, lekin foyda bermaydi», -deb nasihat qiladi. SHu hurmatli cholning nasihatlariga amal qilgan yoshlar baxt-saodatli bo‘ladilar".⁸

⁶ Хусайн Воиз Кошифий. Футтуватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тарикати (Панднома). -Т.: Халк мероси, 1994. -112 б.

⁷ Донолар бисотидан. Тузувчи ватаржимон ШШОмухамедов. (Мухаррир Миртемир). -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. -312б.

⁸ Хусайн Воиз Кошифий. Футтуватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тарикати (Панднома). -Т.: Халк мероси, 1994. -112 б.

Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining turli mintaqalarida amaliy bezak san'ati sohalarining rivojlanishi turlicha bo'lgan. Bu ularning joylashgan hududiga, tabiatiga va u erdagi mahalliy, shart-sharoitlariga bogliq bo'lgan va mavjudlari yaxshi rivoj topgan. Masalan:

-Toshkent vohasida: ganchkorlik, mo'jaz rangtasvir, naqqoshlik, suyak, yogoch o'ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, kashtachilik va boshqa hunarmandchilik sohaları;

-Zarafshon vohasida: zardo'zlik, ganchkorlik, misgarlik, kulolchilik, do'ppichilik;

-Farg'ona vodiysida: naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, yog'och o'ymakorligi, sartaroshlik, kulolchilik, kashtachilik, mo'jaz san'ati;

-Xorazm vohasida: naqqoshlik, kigizchilik, gilamdo'zlik, yogoch, tosh o'ymakorligi, me'morchilik san'ati.

Ota-bobolarimiz bolani tug'ilmasdanoq hunarga o'rgatish kerak deyдилar. Bu gapda chuqur falsafiy ma'no yashiringan. Qadimdan hunarmand oilalari juda ko'p sohalarga bo'lingan, masalan, zargarlik hunari bilan shug'ullanayotgan oilada kichik boladan tortib, cholu kampirlar ham shu hunar bilan shug'ullanganlar. Bola ona qornida bo'lganida ona zargarlik buyumlarini tayyorlayotganida, ya'ni materiallarga ishlov berishda yoki boshqa narsalarni bajarayotganida, bola aynan shu materiallar hidiga o'rgangan, nafas organlari orqali nafas olib, shu hidlarga moslashgan. Bola tug'ilgandan bir qancha vaqt o'tgandan so'ng zargarlik buyumlarini qo'lida ushlagan va o'ynab yurgan. Asta-sekin bola ota-onasiga zargarlik buyumlarning qismlarini bukib yoki tayyorlab berib turish kabi ishlarni bajargan. Keyinchalik bu tabiiy qiziqish natijasida etuk usta bo'lib, ota-onasi hunarining davomchisi bo'lgan.⁹

Olima D.A.Zohidova¹⁰ «Hunarmandchilikka kirish» maxsus kursi bo'yicha dastur va uslubiy tavsiyanomasida hunarmandchilik ustaxonalarining nizomi, ya'ni «Risola» haqida quyidagicha bayon etgan. «Hunarmandchilik risolasida «Udumlar nizomi» mavjud bo'lib, unda kasb-hunar kolleji o'quvchilariga mo'ljallangan hunarmandchilik tarixi, an'anasi va usullari haqida so'z yuritiladi.

⁹ Юлдашев Х.А. Хунармандчилик одоби. ИГК. Мактаб ва қаёт. 2003, № 5. 8 б.

¹⁰ Зоҳидова Д.А. «Хунармандчиликка кириш» махсус курси бўйича дастур ва услубий тавсиянома. -Т.: ЎМКХТРИ, 2001. 176.

SHuningdek, u o'zining «Hunarmandchilikka kirish» maxsus kursini o'rganish risolasida o'quv rejasi va dasturi mazmuni, mashg'ulotlar namunasi va hunarmandchilikka oid asarlardan ayrim parchalar keltirgan bo'lib, undan usta-hunarmandlar va ularning shogirdlarining ma'naviy hayotlari hamda mehnat faoliyatlarini belgilab beruvchi me'yoriy hujjat sifatida foydalanish mumkin.

SHuni ta'kidlash joizki, turli soha hunarmandchilik risolalarining tuzilishi bir xil. Ularning barchasi Olohga, uning payg'ambariga va izdoshlariga hamdu sano bilan murojaat qilishdan boshlanadi, so'ngra muayyan bir hunarning ilohiy kelib chiqishi haqida haqiqatgo'y imom Jafar tomonidan rivoyat qilinadi, chunki u barcha hunarlarning tuzuvchisidir. So'ngra, hunarmand o'zining mehnat faoliyatida qanday hikmatli, diniy yoki boshqa gaplarni aytmog'i lozimligi haqida ko'rsatmalar beriladi va nihoyat, pirovardida hunarmandga risola qoidalarini bajargani uchun mukofot, ushbu qoidalarni buzgani yoki bajarmagani uchun jazo va'da qilinadi.

Risolaga binoan shogird barcha avliyo va hunar homiylarining nomini, har bir ishlab chiqarish jarayonida o'qiladigan Qur'on suralarini aytib bermaguncha ustozdan «takbir» (ruxsat ibodatini qilish orqali mustaqil ravishda hunar bilan shug'ullanishga ruxsat) ola olmagan.

Ammo, biz uchun o'ta muhim narsa shundaki, barcha risolalar juda katta ruhiy-ma'naviy kuch-quvvatga ega. Ular bajarishi majburiy bo'lgan ma'naviy qonun-qoidalar, ya'ni farzlarni o'rgatadilar va ushbu hunarga mansub odamlar bu qonun-qoidalarga rioya qilishlari shart bo'lgan.¹¹

Ushbu risolada usta-hunarmandning kasbiy fazilati, burchi, majburiyati, «usta» degan nomni olish odobi, qonun-qoidasi va boshqalar bayon etilgan. Unda oqsoqollarni, ya'ni pir va ustalarni doimiy e'zozlash lozimligi, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini o'z aksini topgan.

¹¹ Зоҳидова Д.А. «Хунармандчиликка кириш» махсус курси бўйича дастур ва услубий тавсиянома. -Т.: ЎМКХТРИ, 2001. -16 б.


2 BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAHALLIY XOM-ASHYOLARGA ISHLOV BERISH METODIKASI

2.1. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob uskunalar va ulardan foydalanish texnologiyasi.

Mo'yqalam — qilqalam, naqqoshlikda, rassomchilikda qog'oz, ganch, yog'och, karton va boshqalarga bo'yoq bilan rasm solish, bo'yashda ishlatiladigan asbob. Mo'yqalam hayvonlar junidan va har xil plastinkalardan tayyorlanadi. Mo'yqalamlar ko'rinishiga qarab yalpoq, ya'ni kurakcha ko'rinishdagi mo'yqalamlar, uchi ingichkalashib boradigan dumaloq mo'yqalamlar bo'ladi. Dumaloq mo'yqalamlarni uchi ingichka bo'lib borishi tasvirdagi mayda nozik joylarni ishlashga qulaylik tug'diradi. Bo'rsiq, suvsar, olmaxon kabilarning junidan tayerlangan mayin mo'yqalamlar akvarel, tempera hamda grafika, rang tasviri ishlarida ishlatiladi. Akvarel uchun qog'oz yuzasini buzmaydigan yumshoq mo'yqalamdan foydalaniladi. Biroz qattiqroq mo'yqalamda guash va tempera bo'yoqdagi tasvirlar uchun qalamlarni moybo'yoq mo'yqalamlar deyiladi.



Mo'yqalamlar va ularni ishlatish tartiblari.



Mo'yqalamlar


Ular rassomchilikda, naqqoshlikda va bo'yoqchilikda qo'llaniladi. Uzun qilli mo'yqalamlar esa freska hamda teatr dekaratsiyalarini tayyorlashda ishlatiladi. Qadimgi ustalar mo'yqalamlarni o'zlari tayyorlaganlar yoki maxsus mo'yqalam tayyorlaydigan ustalarga buyurtma berganlar.


Akvarel va guash uchun tayyorlangan mo'yqalamlarni ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun mo'yqalamni suvga botiriladi va suvdan olib silkitilsa shunda uchlari to'planib qolsa bu mo'yqalam ishga yaroqli, aksincha tuklari to'zib tursa ishga yaroqsiz hisoblanadi. Ayrim naqqoshlar ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. YA'ni bir tomonida katta, ikkinchi tomoniga kichikroq mo'yi bo'ladi. Mo'yqalamlar ishlatilib bo'lingandan so'ng kirsovunda ehtiyotlik bilan yuvilib, keyin latta bilan siqilgandan so'ng stolni chetiga yoki maxsus tirgakka solib qo'yiladi. Akvarel va guash uchun tayyorlangan mo'yqalamlarni ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun mo'yqalamni suvga botiriladi va suvdan olib silkitilsa shunda uchlari to'planib qolsa bu mo'yqalam ishga yaroqli, aksincha tuklari to'zib tursa ishga yaroqsiz hisoblanadi. Ayrim naqqoshlar ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. YA'ni bir tomonida katta, ikkinchi tomoniga kichikroq mo'yi bo'ladi. Mo'yqalamlar ishlatilib bo'lingandan so'ng kirsovunda ehtiyotlik bilan yuvilib, keyin latta bilan siqilgandan so'ng stolni chetiga yoki maxsus tirgakka solib qo'yiladi.

Akvarel mo'yqalamini ishlatishda va uni saqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Mo'yqalamni suvda qoldirmaslik.
2. Mo'yqalamni bo'yoq bilan qotib qolishiga yo'l qo'ymaslik.
3. Ho'l holida mo'yqalamni saqlash mumkin emas.
4. Mo'yqalamni changdan, yog'li narsalardan saqlash.
5. Mo'yqalamning mo'y qismining uchini qiyshiq va tarqoq bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik, chunki keyin to'g'rilash juda qiyin.
6. Akvarel ishlashda moyli moybo'yoq mo'yqalamini qo'llamaslik.
7. Mo'yqalamni quruq joyda, uchi qog'ozda o'ralgan holda maxsus qalamdonda saqlash kerak.

Politra — naqqoshchilikda ok, rangdagi yassi lagancha yoki to'g'ri to'rtburchak plastmassa. Bunda oq qog'oz yoki kartondan ham foydalanish mumkin. Unda har xil bo'yoq turlari va shu rang bo'yicha koler tayyorlanadi.





Qalam — naqshlarni sifatli chizish uchun qalamlarni to‘g‘ri tanlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish katta ahamiyatga ega. CHizmalar va naqshlar chizish uchun «konstruktor» markali har xil qattiqlik va yumshoqlikdagi qalamlar juda qulay. Naqqoshchilikda asosan o‘rtacha qattiqlikdagi «TM» qalamlar ishlatiladi. Qattiqlik darajasiga qarab qattiq, o‘rtacha qattiq va yumshoq qalamlar bo‘ladi. Ularni tegishlicha T, TM va M harflar bilan belgilanadi. Qattiq va yumshok, qalamlar oldiga sonli ko‘rsatkichlar ham qo‘yiladi. CHunonchi 21, ZT, 4T yoki 2M, ZM, 4M va boshqalar T harfi oldidagi son qancha katta bo‘lsa, u shuncha qattiq bo‘ladi. M harfining oldiga qo‘yilgan raqam qancha katta bo‘lsa, u shunchalik yumshoq bo‘ladi. CHet el qalamlarini N (qattiq) yumshoqini V markalar bilan belgilanadi. O‘rtacha qattiqlikdagi harflar esa NV harflar bilan belgilanadi.



O‘chirg‘ich — chizma chizishda qalamda, siyohda, tushda yoki boshqa chiziqlarni o‘chirish uchun ishlatiladi. O‘chirg‘ich ikki xil: qalamda chizilgan chiziqlarni

o'chirish uchun yumshoq oq yoki ko'k o'chirQich, siyoh, tush va boshqalarda chizilgan tasvirlarni o'chirish uchun tarkibida qumi bo'lgan qizil o'chirg'ich bo'ladi. Qog'ozda o'chirg'ich qancha ko'p ishlatilsa, qog'oz yuzasi ishdan chiqib bo'yoqni yaxshi olmaydigan bo'lib qoladi, bundan tashqari o'chirg'ichni qo'lda ko'p ushlab turish ham mumkin emas, chunki qo'l terlab u yog'lanib, kirlanib qoladi, natijada qog'ozni xira qilib qo'yishi mumkin.

Suv idishi — guash yoki akvarelga suv qo'shib aralashtirib turish va mo'yqalamlarni yuvib turish uchun ishlatiladi. Koler tayyorlashda esa maxsus kichkina foyans, plastinka, chinni va boshqa materiallardan qilingan idishchalar ishlatiladi.

Transporter—turli burchaklarni belgilash va o'lchash uchun ishlatiladi. Ayniqsa geometrik naqsh ishlashda ko'p ishlatiladi. CHizg'ich va uchburchaklar naqshlar chizishda juda kerakli qurol bo'lib, yog'ochdan ishlatilganlaridan foydalangan ma'qul. CHunki plastmassa chizg'ich va uchburchaklar tez kir bo'lib chizmani iflos qiladi.

Nina—kalkani naqsh chiziqlari bo'ylab teshib chiqishda qo'l keladi.

Jilvir qog'oz — (qum qog'oz) jilvir qog'oz asosan asboblarni charxlash, pichoqlarni tozalashda ishlatiladi. Jilvir qog'ozning ko'pincha 000 markali qum qog'ozi ko'p ishlatiladi. Jilvir qog'ozlar davlat tomonidan standart asosida ishlab chiqariladi. Qalamlarni uchini silliqlashda, yog'ochdan tayyorlanayotgan buyumga pardozi berishda ishlatiladi.

Gul qalam — yumshoq mo'yqalam turi bo'lib, naqshlarni bo'yash va pardozi uchun ishlatiladigan mo'yqalamdir. Gul qalamlar bo'rsiq, olmaxon, suvsar kabi hayvonlarni yungidan tayyorlanadi. Ularni ishlatish joyiga qarab uch turga, mola qalam, obi qalam va siyoh qalamlarga bo'linadi. Mola qalamlar 9,10 nomerli mo'yqalamlardir. Naqshlarning katta va kichik zaminlarini (yuzalarini) bo'yashda ishlatiladi. Obi qalam 6—7 nomerli mo'yqalamlardir. Naqshlarni juda kichik yuzalarini bo'yashda va kompozitsiyaning chetki chiziqlarini, ya'ni ramkalarini chizishda ishlatiladi. Siyoh qalam esa 1,2 nomerli mo'yqalamlar bo'lib, axta yordamida tushurilgan naqsh izlarining o'chib ketmaslik maqsadida bo'yoqda

chizib chiqish, gul va barglarga targ'il berish hamda oq bandlarni tortishda ishlatiladi.

CHakma qalam — obi tortilgan joylariga chakma qo'yish uchun ishlatiladigan maxsus qalamga o'xshash tayoqcha. Uning uch qismining diametri 1 mm bo'ladi. CHakmalarni bo'yaydigan mo'yqalamlar suvsarning mo'yidan yasaladi. Bu mo'yqalamlar bilan ingichka va yo'g'on chiziqlar chizish mumkin, unda siyox, qalam va targ'il qilish juda qulay. Oddiy qalam yo'g'onligidek cho'pning bir tomoni yoki ikkinchi tomonini uch qismini yo'nib, diametri 1 mm li uchlik tayyorlanadi.

Belcha — (shpatel) buyum yoki boshqa narsalar yuzasini maxsus qorishma surtib tekislash (silliqlash)da ishlatiladi. Asosan uch xil: katta, o'rtacha va kichik belchalar bo'ladi. Katta belchanning uch tomoni kengligi 15—20, o'rtacha belchaniki 8—10, kichik belchaniki 3—4 sm bo'ladi. Ular yuzani kattakichikligiga qarab ishlatiladi.

2.2. Amaliy san'at darslarida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish.

Pedagogik texnologiya tushunchasining mohiyatiga oid qarashlar.

Ilmiy-texnik taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigina texnologiyalashtiradi, balki u madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Bugungi kunda informatsion axborot, tibbiyot, ta'lim va boshqa texnologiyalar to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Texnologizatsiyalash – bu ob'ektiv jarayon bo'lib, ta'lim evolyusiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorgarlik davri. Tarixan texnologiya tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan va bu tushuncha san'at, hunar va fan haqidagi ta'limotga muvofiq keladi.

Texnologiya deganda, odatda ashyolarni qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmui tushuniladi. Siyosiy lug'atda texnologiyaga shunday izoh beriladi:

1) ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor ashyolarni qayta ishlash, tayyorlash holati, xususiyati, shaklining o'zgarish metodlari yig'indisi;

2) ashyolar, materiallar va yarim xom ashyolarga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta'sir o'tkazish usullari to'g'risidagi fan.

«Qomusiy lug'at»da shunga yaqin izoh beriladi, lekin uni birmuncha kengroq yoritadi: «Fan sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejimli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa qonuniyatlarini bajarish.»

Texnologiya grekcha so'z bo'lib, texnos- san'at, mahorat, logos- ta'limot degan ma'nolarni bildiradi.

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi.

Hozirgi davr ta'lim texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalari ularni bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qiladi. Oliy maktab oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini

ochib berish va o'quv jarayonining texnologikligi muammolarini ta'minlash masalasi turibdi.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmdan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaurus)dagi o'rni hali noma'lumligicha qolmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntaazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

V.P. Bospalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashtirishga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. SHu tariqa V.P. Bospalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi, afsuski, pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig'idan o'rin egallamoqda.

N.F.Talызina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi, ularsiz pedagogik jarayon asoslanmay qoladi (texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida).

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

SHunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Evropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J.Koroll, P.YA.Galperin, V.I.Davıdov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalмыkova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talızina, L.M.Fridman, YU.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmudov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi, boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qitish yoki o'qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V. Zankov, T.YA.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

1. Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. bu muammoni tadqiq etish o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bepalko).

«Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. SHepel).

«Pedagogik texnologiya – talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir.»(V.M.Manaxov).

«Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO).

«Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi» (M.V.Klarin).

«Pedagogik texnologiya – o'zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi» (G.K. Selevko).

Bu ta'riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Ta'lim texnologiyasi deganda ta'limning belgilangan maqsadi va talabning bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar samaradorligini baholashda quyidagi tamoyillardan foydalanish mumkin:

- Uslublarning belgilangan maqsad hamda o'quv materialining mazmuniga muvofikligi;
- Uslublarni anglash, mantiqiy, nazorat-baholash va rag'batlantiruvchi jihatlarga ko'ra o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, ularning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlarini e'tiborga olish asosida tanlanganligi;
- Qo'llaniladigan usullarning mavjud moddiy-texnik baza va belgilangan ta'lim vaqtiga muvofiqligi;
- Qo'llanilgan usublarning aniq, muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasi, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. YAnada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga

ko'chirish mumkin, ya'ni: PT - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Ta'limni insonparvarlashtirish, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechish, sabr-bardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash kabi shaxs sifatlarini shakllantirish muammolarining muvaffaqiyatli hal etilishi bevosita ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Bu mazkur masalaga tanlangan muammo nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, texnologik yondashuv o'quvchilarni ta'limda interfaol metodlardan foydalanish jarayonining barcha jihatlarini inobatga olish hamda eng maqbul shakl, metod va vositalardan foydalanish imkoniyatini oldindan aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

O'quv-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish borasida V.P.Bespalko, N.F.Taluzina, M.T.Gromova, T.S.Nazarova, N.Sayidaxmedov, M.Ochilov, J.G.Yuldoshev, S.A.Usmonov, S.S.G'ulomovlar izlanish ishlari olib borilgan va muayyan tajribalar to'plangan.

“Ta'lim texnologiyalari” (“pedagogik texnologiyalar”) deb nomlanuvchi nazariyaning dastlabki g'oyalari garchi o'tgan asrning 20-30-yillarida asoslangan bo'lsa-da, “texnologiya” tushunchasining mohiyati borasida hanuzgacha bir to'xtamga kelinmagan. [46].

Rossiyalik olim V.P.Bespalkoning fikricha, PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan talaba shaxsini shakllantirish jarayoni loyixasidir

V.M.Monaxov: “PT – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir”, degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratgan xolda “PT - o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod

qiladi”, deb ta’kidlaydi.

M.V.Klarinning fikricha, PT - o‘quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini loyihalashtiradi

I.YA.Larnerning fikriga ko‘ra, PT - o‘quvchilar harakatlarida aks etgan o‘qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

N.Saydaxmedov va M.Ochilovlarning fikricha, PT – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida talaba (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

B.L.Farberman “Pedagogik texnologiya ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv bo‘lib, pedagogikada ijtimoiy–muxandislik ong ifodasidir” deb ta’rif beradi. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyahasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir degan tushunchalar berilgan.

SHu bilan birgalikda B.Ziyomuxamedov va SH.Abdullaevalarning “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot” uslubiy qo‘llanmasida “Pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini majmuasi sifatida ko‘rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo‘lgan o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida talaba (talaba)larga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma – ketlikda ko‘rsatgan ta’sirini nazoratda tutuvchi va ta’lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tarbiyadir” deb ta’riflagan. Ushbu olimlarning fikricha, “Texnologik yondashuv ishlab chiqarishdan olingan bo‘lib, unda minglab texnologik jarayonlar loyihalashtirilgan. Ular ishlab chiqarishda kerakli natijalarga erishish garovi hisoblanadi”. Bu texnologiyalarni qo‘llash hudud va ularning ijrochisi o‘zgarisa ham kerakli maxsulot chiqaveradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ham shunga erishish uchun pedagogik texnologiya ishlab chiqildi” deb qayd etdilar

Yuqorida qayd etilgan ta'riflarni tadqiqot mavzusiga ko'chirish natijasida, pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir deb ta'riflash mumkin. Biz tadqiqotlarimiz natijasi sifatida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarni ta'limda interfaol metodlardan foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqishda yuqorida aytilganlarga asoslandik.

Pedagogika, psixologiya fanlari mazmunida o'z aksini topgan nazariya va ta'limotlarda shaxs kasbiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirish muammolariga alohida ahamiyat qaratilgan. Bu shaxs tomonidan tashkil etiluvchi amaliy faoliyatlar sirasida ustuvor o'rin tutadi. Ayni vaqtda kasbiy faoliyat mutlaqo individuallik xususiyatiga ega. Agarda shaxs shakllanishining barcha yo'nalishlari bevosita ijtimoiy muhitda uning atrofdagilar bilan uyushtiruvchi muloqot hamda munosabat jarayonida namoyon bo'lib, o'zgaralar va o'ziga nisbatan munosabat, talab va istaklar mohiyatini ifoda etsa, kasbiy faoliyat esa shaxsning muayyan mehnat yoki kasb-hunar turi va uni tashkil etishga bo'lgan munosabatini anglatadi.

Bizga yaxshi ma'lumki, ijtimoiy-falsafiy, psixologik, shu jumladan, pedagogik yo'nalishlarda tadqiqotlarni olib borishda o'rganilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi tayanch tushunchalarni aniqlash hamda ularning ma'nosini sharhlash ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu harakat muammoni to'laqonli, izchil, tizimli va maqsadga muvofiq amalga oshirilishi, tadqiqot maqsadini aniqlash hamda kutilayotgan natijalarni oldindan bashoratlash uchun xizmat qiladi. Muammoni nazariy jihatdan o'rganishda mualliflar tomonidan ushbu masalaga qay darajada e'tibor qaratilganligi tahlil qilinib, aksariyat mualliflar o'quvchilarni ta'limda interfaol metodlardan foydalanish jarayoni mohiyatini yorituvchi asosiy tayanch tushunchalarni aniqlashga uringanliklarini aniqladik.

Pedagogika fani predmeti jamiyat ehtiyoji va rivojlanayotgan shaxs qiziqishiga hamohang tarzda sun'iy tarbiyaviy jarayonni qurish qonuniyatlarini o'rganadi va uni izchil amalga oshiradi. Ana shu sun'iy tizim «Pedagogik

tizim», unda kechadigan jarayonlar esa «Pedagogik texnologiya» deb ataladi. Pedagogik tizim tashqarisida hech qanday maqsadli ta'lim-tarbiya jarayoni kechmaydi yoki pedagogik texnologiya – bu amaliyotga joriy etiladigan pedagogik tizim loyihasidir. Bu tizimni takomillash, asosan, quyidagicha yoʻnalishlarda olib borilmoqda;

- didaktik birliklarni yiriklashtirish;
- oʻqitish natijalarni oldindan belgilash, rejalashtirish;
- ta'lim jarayonini psixologiyalashtirish;
- kompyuterlashtirish.

Bugungi kunga kelib, shubhasiz, bu yoʻnalishlar boʻyicha maʼlum yutuqlarga erishildi. Agar bu yoʻnalishlar aniq ta'lim-tarbiya maqsadini echishga qaratilgan holda yaxlitlashtirilsa yoki integral holatga keltirilsa, bu amal natijasida kuchli texnologiya vujudga keladi. Bu texnologiya integral texnologiya deb ataladi va yunoncha soʻz boʻlib, «bir butunlik», «uzluksizlik» maʼnolarini anglatadi. Integral texnologiyalar uchun yangi mashgʻulot shakli – seminar parktikum yaratiladi. Uning mazmuni: mashgʻulotni oʻtkazish uchun oʻquvchilar kichik guruhlarga birlashadi va har bir guruh chegaralangan vaqt davomida bajara oladigan topshiriq oladi. Ana shu topshiriqni odindan bajarishga kirishadilar va bunda ta'lim-tarbiya jarayoni ob'ektini to'g'ri tanlash jiddiy ahamiyat kasb etadi. Ob'ekt obdon tadqiq qilingach, natijalari bo'yicha kichik guruhlar «hisob» beradilar, ya'ni mashgʻulot «publik himoya» koʻrinishida tashkil etiladi. Qarabsizki, oʻquvchilar oʻz-oʻzini oʻqitish, bahs, munozara, mavqeini mustahkamlash orqali oʻquv mavzularini chuqur oʻrganadilar va shu tarzda yakuniy natija ta'minlanadi.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiya biror nazariya va maqsad asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalda bo'lishi, uning moslanuvchanligi hamda talabaning shaxsiy xususiyatlari, ularning texnologik va individual me'yorlari bilan bog'langan. Bunda ushbu texnologiyalarning moslashuvchanligi, ularning variativligi, talaba xatti-harakatlarining bosqichlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qitish texnologiyasi sathida o'quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi. SHaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Bu tadqiqotlarni tahlil qilgan holda ushbu ta'rifni berish mumkin:

Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimi loyihasidir.

Oliy ta'limni isloh qilish bu masalalarga ilmiy asoslangan nuqtai nazardan yondashishga majbur etadi. Har qanday loyihalash, o'qitishning ilmiy asoslangan vositalari bo'lgani holda uning texnologikligi hisoblanmaydi.

Loyihalash metodologik funksiya bajaradi. U talabaning psixik rivojlanish qonuniyatlari, o'quv jarayonining rivojlanish xususiyatlari va pedagogik boshqaruv usullarining tadqiqot vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Oliy o'quv yurtida ta'limni takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish, o'quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi.

Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

O'qitish texnologiyasi ta'limning faoliyatini ta'minlaydi, bilimlarni mehnat jarayoniga tatbiq etishni ta'minlaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo'liga ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy o'qitish texnologiyasi shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Mutaxassisga bo'lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik tamoyili bo'lajak kasbiga qaratilgan maqsadlar, mazmun funksiyalari, o'qitish metodlaridir. SHundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyalar ta'riflariga bo'lgan turli yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, haqiqatdan ham o'qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda o'quv-pedagogik jarayon oralig'idan o'rin oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo'lib, u o'qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog'langan. U o'quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o'zida qamrab oladi.

O'qitish texnologiyasi tarkibiga o'quv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o'qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O'quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

O'qitish texnologiyasi, o'qitish nazariyasi, o'qitish texnikasi. Ular o'quv faoliyatini boshqarish haqidagi pedagogik sohalardir, ular umumlashtirilgan darajasiga ko'ra amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim istiqbolining jarayonlashtirilgan aspektidir.

O'qitish texnologiyasini belgilash – bu kasbiy faoliyat sohasidagi ta'limiy va takomillashish samarasini ta'minlovchi o'quv jarayonini me'yoriy boshqarib turishdir.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspekti to'g'risida fikr yuritiladi: *ilmiy, tavsifiy, amaliy*.

Ilmiy aspektda o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi, pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

Tavsifiy aspektda rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

Amaliy aspektda pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi.

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi: *umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul)*.

Umumpedagogik texnologiya yaxlit ta'lim jarayonini ifoda qiladi.

Xususiy metodik texnologiya bir fan doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

Lokal (modul) texnologiya o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limlariga texnologiyani tatbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Pedagogikada o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar ham o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi, ya'ni ular orasida hali ham aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishishi va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim.

Kasbiy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o'zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligini aks ettiradi va o'z kasbiy faoliyatini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko'ra pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi. U konseptual asos, ta'lim jarayoni mazmuni, texnologik jarayondan iborat bo'ladi.

Har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy konsepsiyasi ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarni qamrab oladi.

Ta'lim jarayoni mazmuni ta'lim jarayonining umumiy va aniq maqsadlari, o'quv materialini mazmunidan iborat bo'ladi.

Texnologik jarayon o'quv jarayonini tashkil etish, o'qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o'quv jarayonini boshqarish usullari, o'quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar.

Izchillik pedagogik texnologiyaning mezon sifatida jarayonning mantiqiyliigi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o'zaro bog'likliigi, yaxlitligani o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri boshqaruvga asoslanganligidir. U o'quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalari bilan o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorlik mezonini ta'lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zda tutadi.

Qayta tiklash pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o'quv yurtlarida qo'llash imkoniyati tushuniladi.

SHunday qilib, oliy maktabda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo'nalganligini idrok qilish, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog'langan.


Bo'lg'usi pedagogning texnologik tayyorgarligi oliy o'quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o'quv yurti ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar: muammoli o'qitish, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi, komp'yuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasidir.

So'roqnama (Aqliy hujum)

1. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar haqida ma'lumot bering.

2. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish texnologiyasi.
3. Asbob uskunalarini ishlatish jarayonidagi texnika xavfsizligi.
4. Asbob uskunalaridan foydalanish jarayonida gigiena qoidalaridan foydalaniladimi?
5. Naqqoshlik fanida qanday duradkorlik uskunalaridan foydalaniladi?
6. Arradan naqqoshlikda nima uchun foydalaniladi?
7. Bolgʻadan naqqoshlikda nima uchun foydalaniladi?
8. Duradgorlik dastgoxlarida qanday ishlar bajariladi.
9. Duradgorlik dastgoxlarida qanday joylashtirilgan boʻlishi kerak?
10. Qoʻl arraning qanday turlari mavjud?
11. Burchak arra qanday vazifani bajaradi?
12. Dast arra qanday xollarda ishlatiladi?
13. Lobzik vazifasi nimalardan iborat?
14. CHasrakli arra va uning vazifasi nimalardan iborat?
15. CHizʼa arraning vazifasi haqida gapirib bering.
16. Duradgorlik dastgoxlarida burchaklardan qanday foydalaniladi?
17. Lobzik bilan ishlashda foydalaniladigan maxsus moslama haqida nimalar bilasiz?
18. Randalardan toʻgʻri foydalanishda nimalarga axamiyat beriladi.
19. Mix sugʻurishda qanday uskunalaridan foydalaniladi?
20. Oʻlchash va rejalash deganda nimani tushunasiz?
21. Oʻlchash va rejalash asboblari sirasiga qaysi asboblar kiradi?
22. Ruletka, yigʻma, metr va masshtabli chizgʻich haqida nimalar bilasiz?
23. Duradgorlikda choʻniya qanday axamiyatga ega?
24. sirkul va shtangensirkul asboblar yordamida qanday ishlar bajariladi?
25. Duradgorlik kichik xajmli qutichalar yasashning qanday usullarini bilasiz?
26. Daraxt turlari xaqida nimalar bilasiz?
27. Elektrodrel haqida nimalarni bilasiz?
28. Elektrodestgoxli arralar haqida nimalar bilasiz?
29. Elektrolarma dastgoxlari haqida nimalarni bilasiz?
30. Emulsiya boʻyogʻi qaysi boʻyoq turiga kiradi?

Naqqoshlikda foydalaniladigan xom ashyolarni ajratib bering.




ANKETA TEXNOLOGIYASI
O‘zbek xalq amaliy san’atiga oid terminlar

№	Terminlar	Amaliy san’at turi		
		Naqqoshlik xom ashyosi	Zardo‘zlik xom ashyosi	Ganchkorlik xom ashyosi
1	Arba			
2	Qumqog‘oz			
3	Gips			
4	Simdo‘z			
5	Kantras			
6	Qolip			
7	Kist			
8	Iroqi			
9	Arra			
10	Naqsh			
11	Guash			
12	Siddi			
13	Baxya			
14	Qalam			
15	Axta			
16	Xoka			

ELPIG'ICH TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiya har qanday fanda qo'llanilishi mumkin bo'lib solishtirish asosida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda fikrlaydilar farqini aniqlaydilar va xulosa yozadilar.

№	Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob uskunalari		YOg'och o'ymakorlikda ishlatiladigan asbob uskunalari	
	ijobiy	salbiy	ijobiy	salbiy
1.				
2.				
3.				
Xulosa				




3-BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAHALLIY XOM-ASHYOLARGA ISHLOV BERISH METODIKASI SAMARALIY YO‘LLARI.

3.1. Naqqoshlikda ishlatiladigan xom ashyolardan foydalanishning o‘ziga xos tomonlari.

Akvarel — lotincha so‘z bo‘lib, suvda eriydigan va osongina yuviladigan elimli bo‘yoq. Bu bo‘yoqda ishlangan naqshlar va rasmlarning asosiy xususiyatibo‘yoqlarning tiniq hamda shaffofligi, rasm zaminining ranggi aniq sezilib turadi. Akvarel qattiq, yumshoq va xamirsimon massa holda bo‘ladi. Akvarelda oq rang bo‘lmaydi. Oq rang o‘rnida bo‘yoqlarning tiniq va yupqa qatlami tagidan ko‘rinadigan yoki bo‘yalmay qolgan qog‘ozning rangi xizmat qiladi. Akvarel qadimgi Misr. Xitoy va YAponiyada keyinchalik Angliyada va XVIII—XIX asrlarda Rossiyada keng qo‘llanildi. XIX asr akvarel asrining keng rivojlangan.

Bezak uchun ishlatiladigan materiallar va jihozlar davri bo‘ldi. Rassomlardan Delakrua, Dome, Gavarni va boshqalar, Rossiyada Bryulov, Repin, Vrubel va boshqalar, O‘zbekistonda SHEvyakov, O‘. Tansiqboev, G. CHiganov kabi rassomlar shuhrat qozongan davr edi. Sovet rassomlarida manzara portret, kitob suratlarida akvarel asosiy bo‘yoq bo‘lib qoldi. O‘rta asrlarda Rossiyada va G‘arbiy Evropada akvarel bilan diniy kitoblar bezatildi. Lekin ular akvarelga oq bo‘yoq moddasi qo‘shilgan holda ishlatilgan. Akvarel asosan ikki qismdan: shirach va bo‘yoq kukunidan tashkil topgan. Bog‘lovchi moddalar olcha, gummi arabika, olxo‘ri va boshqa daraxtlarning shirachidan tayyorlanadi. Ayniqsa olcha daraxti shirachidan tez eritma tayyorlash mumkin. Bu bo‘yoqni tayyorlashda uni tez qotib qolmasligi, pishiqligi hamda suvda tez eruvchanlik xususiyatini oshirish uchun asal, dekstrin, glitserin qo‘shiladi.





Guash — italyancha suv bo‘yoqi degani. U suvli uncha tiniq bo‘lmagan bo‘yoq. Guash shirach va belila aralashtirib hamda suvga qorilgan bo‘yoq bo‘lib, akvarelga bo‘yoqlarning yumshoq xillariga o‘xshasada, belila qo‘shilganligi, bo‘yoq qatlamlar hamda xiraligi bilan farq qiladi. Guash bo‘yoqlari plastmassa, shisha bankalarda, tyubiklarda ishlab chiqariladi. Guash bo‘yoqi quyuuq qaymoqqa o‘xshaydi. U qurib qolmasligi uchun ustiga glitserin, suv, kuchsiz olcha shirach va boshqalar quyiladi. Guash bo‘yoqida ishlashning o‘ziga xos qulayliklari bor. Mo‘yqalamda oson olinishi, quriganda uqalanib ketmasligi, surkalib ketmasligi, tag qismidagi bo‘yoq qavati bir tekisda to‘la berkitilgan bo‘lishi kerak. Guash bo‘yoqining tarkibiy bog‘lovchisi dekstrin, glitserin hisoblanadi. Guash bo‘yoqini tayyorlashda bo‘yoq kukunlaridan foydalanib tayyorlanadi, Guash bo‘yoqida akvarel mo‘yqalamlari va uning mo‘ynasidan biroz qattiqroq mo‘yqalamlar hamda moy bo‘yoqlari uchun chiqarilgan mo‘yqalamlardan ham foydalanadi. Maxsus rassomchilik va badiiy ishlarda alohida emulsiyalardan tayyorlangan guash bo‘yoqlar ishlatiladi. Bu



bo‘yoqlar rangining chiroyli va tiniqligi bilan farqlanadi. Fluoresseusiyali guash bo‘yoqlar ham bor. U olti xil rangda bo‘lib, polietilen idishchalarga solingan bo‘ladi. Bu guash turini akvarel va temperalar bilan ham aralastirib ishlatsa bo‘ladi. Fluoresseusiyali guash nihoyatda tiniq va yorqin bo‘ladi. Umuman guash bo‘yoqidan rasmlar, naqshlar, har xil gazeta, plakatlar, shiorlar yozishda va boshqalarda ishlatiladi. Siqma akvarel bo‘yoqi (Neva)ni oq guashga qo‘shib ishlatiladi, akvarel va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

TEMPERA VA UNING TURLARI



Tempera bo‘yog‘i suvda eruvchi bo‘yoqlardan biridir. Uning o‘ziga xosligi “**qaytmaslik**” xususiyati, ya’ni qurigan bo‘yoq suv (nam)da yumshab, erimaydi. Bunga sabab, uning tarkibini kuchli bog‘lovchilar tashkil qilganligidadir. Bu bo‘yoqdan qadimdan devoriy suratlar, turli satxlardagi dastgohli asarlarini ishlashda foydalanilgan. Tarkibi jihatidan uning bir necha turlari mavjud: tuxumli tempera, kazeinli tempera, voskli tempera va hokazo. **Tuxumli tempera** bo‘yog‘i eng qadimgi bo‘yoqlardan biri bo‘lib, uning uch xili mavjud: Butun tuxumdan tayyorlangan tempera. Tuxum oqidan tayyorlanadigan tempera. Tuxum sarig‘idan tayyorlanadigan tempera. Tuxum oqidan tayyorlanadigan tempera bo‘yog‘idan sharqda miniatyura asarlarini ishlashda keng foydalanilgan. Tuxum sarig‘idan tayyorlanadigan tempera lokli miniatyura asarlarini ishlashda foydalaniladi. Tuxum sarig‘idan tayyorlangan tempera tuxum oqidan tayyorlangan temperaga qaraganda tarkibida yog‘ moddasining ko‘pligi, yopishtiruvchi xususiyatining

kuchliligi bilan ajralib turadi. Kazeinli tempera o'z nomidan ma'lumki, bog'lovchi elim sifatida **kazein elimi** ishlatiladi. Bu temperadan qadimda devoriy suratlarni moyli bo'yoq topilguncha dastgohli suratlarni ishlashda foydalanilgan. Suvda yaxshi suyuladi, tez quriydi. Qurigan bo'yoq yuvilganda erimaydi va surkalmaydi. Ustma-ust ishlash imkoniyatlari bor. Mumli tempera *Asalari mumidan* bog'lovchi sifatida foydalanib tayyorlangan tempera shunday nomlanadi.

Tuxum sarig'idan tempera tayyorlash Bugungi kunda lokli miniatyura ishlashga bo'lgan qiziqishning kattaligini e'tiborga olib, ushbu temperani tayyorlash jarayoni haqida ma'lumot beramiz. Bo'yoq tarkibi - pigment, tuxum sarig'i, suv, sirka. Tuxumning po'stli qobiq qismi ochilib, ichidagi oq suyuq qismi boshqa idishga solinadi. Sarig'i qopi bilan olinib, chayqab tozalaniladi, so'ng qop pardasi yirtilib sariq suyuqlik, oldindan yuvilgan tuxum idishiga qayta solinadi. SHu miqdorga teng miqdorda suv quyilib, yog'och qoshiqcha bilan bir xil suyuqlik hosil bo'lguncha aralastiriladi va 5 – 6 tomchi 50% (uksus) sirka yoki non kvasi quyiladi. Bu qo'shimcha tuxum sarig'ini tez aynashdan asraydi. Tayyorlangan tarkib **emulsiya** deb ataladi. Tuxum sarig'idan tempera tayyorlash Rang kukuni plastmassa, yog'och yoki chinni idishchaga solinib ustidan emulsiya quyiladi. Rang kukuni emulsiyaga bo'kishi uchun bir oz vaqt kutish kerak. So'ng bosh barmoq bilan pigment idish devoriga ezib ishqalaniladi. Mayda zarrachalar yo'qolib, bir xil qaymoqsimon holatga erishilgandan so'ng bo'yoq tayyor hisoblanadi. Agar bo'yoq quyuk bo'lib qolsa, ishlatishga qulaylik hosil qilish uchun emulsiyadan qo'shiladi. Ish jarayoni uchun kerakli bo'lgan suyuqlik holatiga keltirilgan bo'yoq (tempera) ishlatishga tayyor hisoblanadi. Bo'yoqni kun issig'ida uzoq saqlanishi uchun emulsiya tarkibiga oz miqdorda sirkaning suv bilan aralashmasi yoki chesnok suvi yoki fenon qo'shiladi.



Moy bo‘yoq va uning xususiyati.

Moy bo‘yoqda rangtasvirlash qadimdan mavjud. Rassomlar ustaxonasida o‘zlari pigmentlarni olib kelib uni tozalab yaxshilab tuyib, mayin xolga keltirgandan so‘ng, bog‘lovchi moddalarni aralashtirib moy bo‘yoq tayyorlashgan. SHogird tayyorlashda xam dastlab pigment tayyorlashga qo‘yib sinab ko‘rilgan. Keyinchalik chizmatasvirlashni va moy bo‘yoqda tasvir etishga ruxsat berilgan. Moy va lok tayyorlash jarayoniga xam juda katta e‘tibor berilgan, chunki ularni sifati rangtasvir ishlash jarayoniga bog‘liq bo‘lgan. Moy lok tayyorlash jarayoni, CHenino CHenini va Leonardo Da Vinchi traktatlarida qayd etilgan.

Badiiy bo‘yoqlarni o‘ziga xos xususiyatlarini bilishga ega b o‘lish va ulardan to‘g‘ri foydalanish rassomlar uchun zarurdir. Nafaqat etuk badiiy ma’naviy sana’t asarlarini yaratilishiga intilish zarur va yana uzoq muddat sof saqlanmog‘i xam ko‘zda tutilishi xam axamiyatg egadir.

Badiiy bo‘yoqlar va ularga qo‘yiladigan talablar. Bo‘yoqlarni rangi toza, yorqin va to‘yingan bo‘lishi kerak. Bo‘yoq ishlab chiqaruvchi korxonalarda bo‘yoqlarni rangi tasdiqlangan etalonlarga mos bo‘lmog‘i va u turli idishlarda: tyubik, flakon va shu kabi idishlarda saqlangan xolda bo‘lsa xam qancha muddat bo‘lmasin rangi o‘zgarmasligi va tasdiqlangan bo‘yoq rangiga va tusiga mos bo‘lishi kerak.

YOriqga chidamligi, ya'ni bo'yoqni yoriqlik ta'siri o'ta kuchli bo'lganda xam bo'yoqni rangi o'chmasligi kerak. YOriqga chidamliligini sinalishi: quyosh nurida kamida bir yil, ultrabinafsha nurlarda 200 soat davomida aniqlanadi.

Buyoqlarni sinash uchun, gruntlangan matoga mastexim yordamida bir chetidan bo'yoqni qalin surtib ikkinchi tomonigacha yupqalashib boriladi, yarmini qora qog'oz bilan berkitib yoriqlikga yaqin joyga qo'yiladi, yoki ikkita bir xil bo'yalish takrorlanadi birini yoriqlikga ikkinchisini esa qorong'iga qo'yiladi.

YOriqlikga chidamli bo'yoqga yulduzcha belgi qo'yiladi. YOriqlikga chidamsiziga yulduzcha belgi qo'yilmaydi. Bir va undan ko'p yulduzcha bo'lsa demak yoriqlikga qay darajada chidamli ekanligi ifoda etilgan bo'ladi.

YAna shuni unitmaslik kerak, qorong'ida bo'yoqlarni bog'lovchisi moy to'q tusga kiradi, shuning uchun yangi ishlangan rangtasvir asarlarini qorong'i joyda saqlanmaslik, kerak, aksincha yoriq xonada osilib turishi kerak.

Gazlarga chidamliligi: xovada turar joy va jamoatchilik binolarida doim oltin gugurt qo'shilgan, vodorod gazli uglikislota borligi uchun. Bo'yoqlarni ayrimlarini ushbu gazga qay darajada o'zgaruvchanligini aniqlash uchun, bo'yalmalarni ushbu gazlarga sinaladi va aniqlanadi.

Badiiy bo'yoqlarni tozaligini aniqlash begona aralashma bor yoki yo'qligini aniqlash ayrim xollarda noaniq to'ldiruvchi sinkativlar va shu kabilarni rang berish uchun bo'yovchi moddalar kiritilishi xam uchrab turadi.

Bo'yoqlarni *ishqalab tuyilib ishlovlanishi* benuqson bo'lishi kerak. Pigmentlar juda mayin qilib tuyilgan va eng kichik elakliklarda elangan bo'lishi shart. Ularni qorishmasi bog'lovchi modda bilan ishqab tuyilganda deyarli kolloidli xolatda bo'lishi lozim. Xar bir bo'yoqga xos optimal zarra miqdor o'lchami mavjud, bir necha mikron bilan o'lchanadi. Dag'allari 10-12 dan oshmasligi bunaqasi esa temir oksidida mavjud.

Bo'yoqlarni qorishmada baquvvatligi va bir biri bilan badiiy bo'yoqlar uchun zaruriy shartdir. Afsuski barcha bo'yoqlar ushbu tomonidan benuqson emasdir. Qorishmada juda baquvvat bo'yoqlar bilan birgalikda, bo'yoqlar borki qorishma beruvchi va lekin nisbatan baquvvat.

Ayrim bo'yoqlar o'zi baquvvat bo'lishiga qaramay, boshqa bo'yoq qorishma rangini o'zgartiradi, masalan yashil Pol Veronez, asfal't ushbu bo'yoqlar me'yoridagi politrasi tarkibiga kirmaydi. U o'ziga aloxida yondashuv va foydalanganda chegaralanishni talab qiladi.

Berkituvchan va lessirovkali bo'yoqlar. Ayrim moy bo'yoqlar yaxshi berkitadi, boshqalari yomon berkitadi. YUpqa qatlamda ular shaffof berkituvchanligi va lessirovkali xususiyati moy bo'yoqlarni o'zidagi pigmentlari va ularni moy miqdoriga bog'liq. Qoidaga binoan, tarkibida ko'p moy bog'lovchisi bor. Bo'yoqlar lessirovkali xususiyatiga ega, bog'lovchisi kam miqdorli bo'yoqlar berkituvchan bo'ladi. Lessirovka oldindan qo'yilgan bo'yoq qatlam va yaxshi qurigan bo'yoqlar ustiga shaffof qilib beriladigan yupqa moy bo'yoq qatlami, maqsad: katta bo'lmagan bo'yoq qatlam ustini yupqa bo'yoq berib yana xam bo'yoqni rangi va tusini ko'paytirish yoki kamaytirishdir. Bunga quyidagicha erishiladi: tagida yotgan bo'yoq qatlam yoriqlikni qaytarib ustki yupqa lessirovka qatlamidan nur o'tib ustidagi yupqa bo'yalgan rang bo'yoqlar bilan aralashadi. Lessirovkalar qadimgi rangtasvir ustalarini uslubi sifatida katta o'rin egallagan. Zamonaviy rangtasvirda lessirovka uslubi unchalik ko'p uchramaydi.

Berkituvchan moy bo'yoqlarga quyidagilar kiradi: qo'rg'oshinli va ruxli oqartiruvchilar, kinovar, kadmiy, xrom oksidi, oxralar va boshqalar, lessirovka bob bo'yoqlar kraplaklar, yashil zumrat rang, xind sarig'i, ultramarin va boshqalar bu xali to'liq emas. Rassomlar asariga mos boshqa ranglardan extiyojiga qarab foydalanishgan.

PIGMENTLAR VA ULAR O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Pigment - bu rangli kukun bo'lib, u har qanday bo'yoqning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Pigmentlardan bo'yoq tayyorlashda ularning oldiga bir necha talablar qo'yiladi.

Pigmentlarga bo'lgan badiiy talab quyidagilar: ranglarning tiniqligi, uzoq vaqt saqlanishi, yorug'lik ta'sirida oqarmasligi, bog'lovchilar bilan yaxshi aralashishi, u yoki bu satxni qoplash xususiyatining bo'lishi.

Pigmentlar organik va noorganik turga bo'linadi.

Organik pigmentlar o'simliklardan olinib, satxning ichiga kirish xususiyatiga ega bo'lgani uchun u asosan matolarni bo'yashda ishlatiladi. Ular yorug'likka nisbatan chidamsiz bo'lib, oqaruvchi xususiyatiga ega. Ularning bu xususiyatlari rassomchilik bo'yoqlariga qo'yiladigan talabga javob bermaydi. Noorganik pigmentlar qoplash xususiyatlari yorug'ga chidamliligi va quyuq-suyuq holatlarda ishlatish imkoniyatlari bo'lganligi sababli, ular bo'yoqlar tayyorlashda asosiy xom ashyo hisoblanadi. Pigmentlar asosini qanday modda, metal yoki geografik joy tashkil qilsa, shu modda yoki joy nomi bilan ataladi. Quyida ba'zi bir pigmentlarning olinish manbalari bilan tanishamiz.

ELIMLAR.

Elimlar yoki kley - bog'lovchi, qotiruvchi modda. Ular tarkibi jihatidan tabiiy, sun'iy bo'ladi, hamda qaytuvchi va qaytmas bo'ladi.

Tabiiy elimlarga daraxtlardan, jonivorlarning suyak, terilaridan qayta ishlash yo'li bilan olinuvchi elimlar hamda sut mahsulotlaridan olinuvchi elimlar kiradi. Bular gummiarabik elimi, olcha, bodom, o'rik elimi, kraxmal elimi, duradgorlar elimi, baliq elimi, glitserin, dekstrin elimi.

Sun'iy elimlarga PVA elimi, suyuq shisha (kanselyariya) idishdagi elim kiradi.

Qotgan elim nam, suyuqlik ta'sirida yana erisa bu **qaytuvchi elim** deyiladi. Misol: gummiarabik elimidan tayyorlangan akvarel, guash bo'yoqlarini nam ta'sirida eritish mumkin. Kazein yoki PVA qo'shib tayyorlangan bo'yoqlar qurigandan so'ng yuvilmaydi, ya'ni boshlang'ich holatiga qaytmaydi.

OLIF VA OLIF TAYYORLASH USULI

Olif deb qaynatilgan, tozalangan va qurish imkoniyati boʻlgan yogʻga aytiladi. Asosan yongʻoq yogʻi, zigʻir yogʻi ishlatilgan.

Olif tayyorlash uslubi turli-tuman boʻlib, sifati ham har xil boʻladi. YAxshi sifatli olif tayyorlash uchun sifatli zigʻir yogʻi yoki (mokovoe maslo) yongʻoq yogʻi olish kerak.

3 xil olif tayyorlash uslubi bor:

1) YOGʻ katta issiqlikda tez vaqtda 280-300⁰sda qaynatiladi.
2) Past olovda 120-150⁰ temperaturada qizdiriladi va qaynash darajasiga etkaziladi.

3) Isitish yoʻli bilan 6—12 kun iliq pechkada ushlanadi. Eng sifatli oliflar bu sovuq usulda, qaynatilmagan holda va pechkada uzoq ushlanganidir.

Sovuq usuldagi olif tayyorlash yogʻ loydan yasalgan kulolchilik idishida 14 soat davomida past olovda qizdiriladi (qaynash holatiga etkazilmaydi.) Soʻngra shisha idishga solib 2-3 oy quyosh nuriga qoʻyiladi bunda yogʻ tiniqlashadi va choʻkindilar idish tagiga choʻkadi, keyin boshqa idishga filtrlab qoʻyiladi.

3-usuldagi olif tindirib tayyorlangan olif edi. YOgʻ loydan yasalgan koʻzaga quyilib, iliq pechkaga 12—14 kunga qoʻyiladi. YOgʻ sirtida koʻpiklar paydo boʻlgach, olif tayyor hisoblanadi. Koʻpigi olinib, shisha idishda 2-3 oy quyosh nurida ushlaniladi. Dokadan oʻtkazilgan olif ishlatishga tayyor hisoblanadi. Bu oliflar — tiniq, qurish xususiyati yaxshi, quriganda yaltiroq, yupqa, qattiq boʻladi.

YOgʻdagi oqsil moddalarni tozalash uchun yogʻ tindirilayotgan vaqtda bir oz qora quritilgan non boʻlaklari solib qoʻyiladi.

YAxshi tayyorlangan olif moyli boʻyoqlar bilan ishlashda suyultiruvchi sifatida ishlatiladi. Yoki tuxumli tempera ishlarida lok oʻrnida qoplashga ham ishlatsa boʻladi (Rus ikonalariga olif qoplanadi).

LOKLAR VA UNING TURLARI.

Temperali rasmlar, ayniqsa tuxum sarigʻidan tayyorlangan tempera bilan ishlangan asarlarni albatta loklash kerak. Loklar asosan yogʻli boʻladi (suvdan, issiq, sovuqdan, changdan asrash uchun).

Moyli lok — bu smolaning yogʻ bilan aralashmasidir. Lok tayyorlash uchun kanop yogʻi, yongʻoq yogʻi yoki koʻknori yogʻi ishlatiladi. Bu yogʻlar oldin oqartiriladi, oqsil va suvdan tozalaniladi. Buning uchun shisha idishdagi yogʻ ikki oycha quyoshli joyda usti ochiq holda ushlanadi. Banka ichiga (1,5 qismiga) yaxshi quritilgan qora qotgan non (suxari) solib qoʻyish kerak. Bu jarayon oqsil va suvni ushlab qolishi uchun.

Eng yaxshi loklar **yantardan** tayyorlanadi. Lekin qiyin jarayon, faqat fabrikada qilinadi. Xandon pista smolasi yoki sibir listvinitsa daraxtidan olingan smola qizigan yogʻda eritiladi.

Oqartirilgan zigʻir (lyon) yogʻi – 600 gramm

Sibir listvinitsa daraxti smolasi – 300 gramm

Oqartirilgan koʻknori yogʻi – 600 gramm

Xandon pista yogʻi – 350 gramm

Tozalangan yongʻoq yogʻi – 400 gramm

Sibir listvinitsa daraxti smolasi – 200 gramm

Oqartirilgan zigʻir (lyon) yogʻi – 600 gramm

Xandon pista smolasi – 320 gramm

BOʻYOQLARNI SUYULTIRUVCHILAR

Moyli boʻyoqlarni suyultirish uchun ishlatiladi.

Eng yaxshi Skipidar (Jivichiy) bu Sibir Listvenitsa yoki pixta daraxtlaridan olingan smola sokidir.

Oddiy skipidarlar bu sosna, el daraxtlaridan olinadi. Bu skipidorlar moyli boʻyoqli ishlarni qoraytirish xususiyatiga ega boʻlgani uchun ishlatilmagani maʼqul.

Kerosin ham ishni qoraytiradi.


Benzin tez uchuvchan xususiyatga ega bo'lgani uchun ishlatilmaydi. Rastvoritel №1—2 lar Neft maxsulotlaridan olinadi.

Xom (qizdirilmagan) yog'larni ham ishlatish kerak emas. Ishga sariq rangli ko'rinish beradi, hamda bo'yoqlar ajinlar sifatida osilib qoladi, uzoq vaqtdan keyin ko'chadi.

SHpaklevka — nemischa kurakcha, yuzalarni bo'yash hamda pardozlashdan oldin sirtni tvkislash uchun suriladigan quyuuq massa. U bo'r (mel) yog'och elimi, alif moyi kabi moddalarni qo'shib tayyorlanadi. YUzalarni shpatel yordamida quyuuq massa surtib tekislashga shpaklevkalash deb yuritiladi. SHpaklevkaning ikki turi bor. Elimli (kleevoy) shpaklevka, moyli (maslyanoy) shlaklevka. Elimli shpaklevka uchun avval bo'rni (mel) yanchib, elakda yaxshilab elanadi. yog'och vlimini kuydirmasdan suvda eritiladi, 1 kg yog'och elimiga 3 litr suv hisobida asta-sekin yog'och tayoqchada tez-tez aylantirilib, eritilib bo'lingandan so'ng elangan bo'rni asta-sekin elimli suv sirtiga solinadi, bir vaqtda yog'och tayoqcha bilan yaxshilab aylantirib aralashtiriladi. Keyin esa 1 kg elim hisobiga 0,3 litr alif moyi qo'shib yana aylantiriladi. Agar suyuqroq holda bo'lsa bo'r yana qo'shib aralashtiriladi. YOg'ochda qancha ko'p aylantirilsa, shpaklevka shuncha yaxshi ivitiladi. SHpaklevkani tayyor bo'lganligini bilish uchun shpatelga shpaklevkani olib ko'riladi, agarda u oqib ketmasa, demak u tayyor. SHpaklevkani yoki quyuuqroq tayyorlashimiz qaysi joyga ishlatilishimizga bog'liq. Agar ishlatishdan avval ikkita shpatel yordamida ozgina shpaklevkani obdon bir-biridan o'tkazib ezg'ilab, aralashtirib keyin kerakli joyga surtish boshlanadi. 3 xil shpatel yordamida yuzaga bir tekis surtib chiqiladi va u qurigandan so'ng choklari ustidan 2—3 marta yana shpaklevka surtiladi. U qurigandan so'ng o'rtacha va mayda donali qum qog'ozda silliqilanadi. So'ng yog'och elimini suvda eritib dokadan yoki mayda ko'zli elakdan o'tkazib yog'och sirtiga katta, ya'ni 18—20 nomerli mo'yqalamda surkab chiqiladi. YOg'och elimli suv biroz sovutib suriladi, chunki cho'tka ishdan chiqadi. Qurigandan so'ng oq guash bir tekisda surkab chiqiladi. Qotgandan so'ng katta nomerli mo'yqalamda tekislab chiqiladi. Agar shu joyga

tilla hal yoki kumush hal berilmoqchi bo'lsa, o'rik elimini suvda eritiladi. Uni mayda ko'zli elakdan yoki dokadan suziladi. Biroz sovigandan so'ng tilla hal yoki kumush hal solib aralashtiriladi. Eritma o'rtacha suyuqlikda bo'lishi kerak. Bu qorishmaning yog'och sirtiga katta mo'yqalamda bir tekisda gurunt rangi beriladi. Qurigandan so'ng ustini silliqdash maqsadida mo'yqalamda ishqalab chiqiladi. Bir yoki ikki sidra bo'yaladi. Bo'yoq qurigandan so'ng naqsh nusxasi axta yordamida tushuriladi. Katta fondda (yuzasidan) bo'yash boshlanadi. Naqshning eng katta tagi (foni) ranglanadi, keyin kichik tagi ranglanadi, naqshning gullari va barglari turlanadi, naqshlarni bandlariga; gullari va barglariga targ'il beriladi, nihoyat naqshning oq bandlari va obisi tortiladi.

AXTA (ULGI) TAIYORLASH



Axta — naqsh yoki biror -rasmni shaffof (kalka) qogʻozga chizib, chiziq yoʻllari igna bilan teshilib, buyum yoki biror sirtga tushurish uchun tayyorlangan andaza. Xorazm ustalari axtani ulgi deb ataydilar. Ilk davrlarda ustalar sirtga toʻgʻridan-toʻgʻri chizib, oʻyib yoki chizib boʻyaganlar, keyinchalik axta orqali tasvirni tushurish uchun qulayligini sezib foydalanib kelganlar. Xalq ustalari naqsh kompozitsiyalarining eskizini va axtalarini yillar davomida saqlab kelganlar. Ular xohlagan vaqtlarida bu axtalardan ijodiy foydalanganlar. Axtalar hattoki otadanbolaga oʻtib saqlanib kelinib, bir katta boylik hisoblangan. Ustalar axtani maxsus sandiqlarda saqlab kelganlar. Hozir bunday axtalar ustalarning oʻzida va davlat arxivlarida saqlanib kelinmoqda. Masalan, mashhur ganchkor usta SHirin Murodov, Toshpoʻlat Arslonqulov, naqqoshlar T. Toʻxtaxoʻjaev, Jalil hakimov va boshqalarning tayyorlagan ayrim axtalari arxivlarda saqlanmoqda. Axtani tayyorlashda ilk bor naqsh ishlanadigan yuzaga moʻljallab yupqa shaffof qoʻqoz olinadi. Naqsh kompozitsiyaga moslab simmetriya oʻqi boʻyicha shaffof qoʻqozni ikkiga, toʻrtga va hokazolarga buklanadi. Buklamani bir qismiga naqsh chiziladi.

Naqshli shaffof qog'ozni yumshoq yostiqcha ustiga qo'yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshni yirik va maydaligiga qarab igna tanlanadi. Igna teshigi oralig'i naqshning mayda va yirikligiga bog'liqdir. Agar naqsh mayda bo'lsa igna oralig'idagi masofasi shuncha yaqin bo'ladi. Naqsh nusxasini teshib bo'lgandan keyin shaffof qog'oz yoyib yuboriladi, natijada axta hosil bo'ladi. Tayyor bo'lgan axtani ish yuzasiga qo'yib ustidan xoka bosib yurgizib chiqiladi. Natijada natssh nusxasi ish yuzasiga ko'chiriladi va hokazo.

Qog'ozlar — naqqoshlikda chizmachilik qog'ozlari ishlatiladi. Oq chizma qog'ozlari va kalkadan foydalaniladi. Ayrim hollarda katta eskizlar tayyorlashda millimetrovka qog'ozidan ham foydalaniladi. CHizma qog'ozlari qalamda, tushda, akvarelda, guashda ishlash uchun mo'ljallangan bo'ladi. qog'oz turlari ko'p. V va O markali oq chizma qog'ozlar toboq va o'rama holida ishlab chiqiladi. V markali qog'ozda eng muhim chizma va naqshlar ishlanadi. O markali qog'oz oddiy qog'oz bo'lib chizmachilik, naqqoshlik va boshqalarda keng qo'llaniladi. Odatda uning bir tomoni silliqroq bo'ladi, o'sha tomoniga naqsh ishlangani ma'qul. Naqsh chizishning davrlarida boshlang'ich o'rganishda chizmachilik albomlaridan foydalaniladi.

Kalka — fransuzcha kalgus so'zidan olingan bo'lib, chizmachilik, naqqoshlik va boshqalarda, nusxa ko'chirishda ishlatiladigan shaffof qog'oz yoki gazmol. Kalkalar asosan o'ramli qilib uzunligi 40 va 100 m, eni esa 630 hamda 840 mm qilib ishlab chiqariladi. Kalka 297X210, 297X420 va boshqa formatlarda albom va alohida list holida ham bo'ladi. U qog'oz yoki batistdan tayyorlanadi. Qog'ozdan tayyorlangan kalka yuqori sifatli va past sifatli qilib tayyorlanadi. Past sifatli kalka ham shaffof bo'ladi. Batistdan (polotno) ishlangan kalkalar uzoq vaqt saqlanadigan hamda nusxalar ko'paytiriladigan muhim chizmalar ko'chirishda ishlatiladi. CHizmalar va naqshlarni qalamda kalkaga chiziladi, bunday kalka qalam kalkasi deb yuritiladi. CHizmadan tush hamda yorug'lik vositasida ko'plab nusxa ko'chirish uchun maxsus modda shimdirilgan va kalandrlangan qog'oz yoki gazmol kalka kalandrlanmagan shaffof qog'oz esa qalamda nusxa ko'chirish uchun ishlatiladi.

Pista ko‘mir — xoka tayyorlashda va boshqalarda ishlatiladi. yog‘och, saksovul yoki daraxt shoxlarini yoqib, cho‘g‘ bo‘lganda o‘chiriladi. O‘chgan cho‘g‘dan qopqora pista ko‘mir qoladi.

Xal – arabcha - eritish, yutish, metall va qotishma tunj, jez, alyuminiy, qalay, rux, oltin va kumushlardan tayyorlangan kukun.

1. Zargarlikda tilla yo kumushning biror metallning yuziga berish uchun ezib suyultirilgan yoki kimyoviy usul bilan suvga aralashtirgani:
2. SHunday suyuqlikning boshqa metallning yuziga yopishgani. CHunonchi, hali ishqalish kumushning tilla hali ishqolibdi deb ataladi.
3. Naqqoshlikda naqshni bo‘yash uchun ishlatiladigan tilla, kumush bo‘yash yoki bronza kukuni. Tilla, kumush va boshqa xallarning lokka, alifga yoki elimga qarab bo‘yoq tayorlanadi. Hamda bu bo‘yoq qorishmasi asosida naqsh bo‘yaladi. Ba’zi hollarda ishchi yuzaga lok surtirib ustidan xal sepilib pardoz beriladi. Qadimdan naqqoshlar va minatyurachi rassomlar tillaxonaga tuxumni sarig‘ini qo‘shib bo‘yoq tayyorlaganlar. Kumush xalga esa, tuxumni oqini qo‘shib bo‘yoq tayyorlanadi. Tuxum qo‘shilishining sababi shundaki, rang yaltiroqlik xususiyatini saqlab qolish maqsadida ishlatilgan.

Hal oddiy lok bilan tayyorlangan bo‘yoqlar bilan me‘morchilik obidalari bezatilgan. Masalan, Toshkentdagi Amaliy san‘at muzey, Buxorodagi Mohi Xossa kabi binolarni ichki bezaklari hamda Tasviriy va amaliy san‘at muzeylarida saqlanayotgan buyumlar va boshqalar misol bo‘la oladi.

Tarixchi SHarafiddin Ali YAZdiy XIV qurilgan Amir Temur maqbarasi haqida “bu bino osmon kabi baland gumbaz, devorlarining pastki qismi zarhal va lojuvard bilan bezatilgan marmar toshdan qilingan ” deb tariflaydi.

Hozirda O‘zbekistondagi binolarni va buyumlarni bezashda xaldan ko‘p ishlatib kelinmoqda.

Savollar

1. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar haqida ma’lumot bering.
2. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish texnologiyasi.

3. Asbob uskunalarni ishlatish jarayonidagi texnika xavfsizligi.
4. Asbob uskunalaridan foydalanish jarayonida gigiena qoidalaridan foydalaniladimi?
5. Naqqoshlik fanida qanday duradkorlik uskunalaridan foydalaniladi?
6. Arradan naqqoshlikda nima uchun foydalaniladi?
7. Bolg'adan naqqoshlikda nima uchun foydalaniladi?
8. Duradgorlik dastgoxlarida qanday ishlar bajariladi.
9. Duradgorlik dastgoxlarida qanday joylashtirilgan bo'lishi kerak?
10. Qo'l arraning qanday turlari mavjud?
11. Burchak arra qanday vazifani bajaradi?
12. Dast arra qanday xollarda ishlatiladi?
13. Lobzik vazifasi nimalardan iborat?
14. CHasrakli arra va uning vazifasi nimalardan iborat?
15. CHiz'a arraning vazifasi haqida gapirib bering.
16. Duradgorlik dastgoxlarida burchaklardan qanday foydalaniladi?
17. Lobzik bilan ishlashda foydalaniladigan maxsus moslama haqida nimalar bilasiz?
18. Randalardan to'g'ri foydalanishda nimalarga ahamiyat beriladi.
19. Mix sug'urishda qanday uskunalaridan foydalaniladi?
20. O'lchash va rejalash deganda nimani tushunasiz?
21. O'lchash va rejalash asboblari sirasiga qaysi asboblardan kiradi?
22. Rulletka, yig'ma, metr va masshtabli chizg'ich haqida nimalar bilasiz?
23. Duradgorlikda cho'niya qanday ahamiyatga ega?
24. sirkul va shtangensirkul asboblardan yordamida qanday ishlar bajariladi?
25. Duradgorlik kichik xajmli qutichalar yasashning qanday usullarini bilasiz?
26. Daraxt turlari haqida nimalar bilasiz?
27. Elektrodrel haqida nimalarni bilasiz?
28. Elektrodastgoxli arralar haqida nimalar bilasiz?
29. Elektrolar dastgoxlari haqida nimalarni bilasiz?
30. Emulsiya bo'yog'i qaysi bo'yoq turiga kiradi?

1-darajaliy test savollari.

1. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xomashyolar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) stek, karkas, plastilin, xovonda, ganch, skalpel.
- *b) qalam, mo'y qalam, kalka, guash, tempera, akvarel.
- v) xolost, moy bo'yoq, mo'y qalam.
- g) qog'oz, akvarel, mo'y qalam, qalam.

2. «Naqqoshlik» san'atida ishlatiladigan terminlar qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- a) kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, sangina, pastel.
- b) etyud, natura, molbert.
- *v) kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, shobarg.
- g) sangina, pastel, retush, sous.

3. Mo'yqalamning qaysi turi naqsh kompozitsiyalarini bo'yashda ishlatiladi ?

- a) SHitina
- *b) olmoxon mo'yliy
- v) bo'rsug' mo'yli
- g) tulki mo'yli

4. Axta nima?

- *a) nusxa ko'chirish uchun ishlatiladigan, naqsh yo'llari teshilgan shaffof qog'oz, andoza.
- b) elimli bo'yoq turi.
- v) doira shaklidagi naqsh.
- g) naqshli tushirish uchun qora yog'och kukuni va nina bilan teshib tayyorlangan andoza.

5. Xoka iborasi ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) naqshga shakl beruvchi chiziq.
- *b) naqshni tushirish uchun qo'llaniladigan qora yog'och kukuni solingan doka tushunchasi.
- v) xoshiya naqshi.
- g) xandasaviy naqsh.

6. Naqshlanadigan buyumni qaysi yog'ochdan yasash maqsadga muvofiqdir?

- *a) o'rik, yong'oq, tol.
- b) qayin, terak, olma.
- v) terak, qarag'ay, o'rik.
- g) qayin, qora qayin, terak, qarag'ay, nok, yong'oq.

7. Naqqoshlikda qaysi hayvon yunglaridan tayyorlangan mo'yqalamlar ishlatiladi?

- a) echki, quyon.
- *b) bo‘rsiq, suvsar, olmaxon.
- v) qo‘y, ondatra.
- g) suvsar, echki.

8. Axta nima uchun tayyorlanadi?

- *a) biro yuzaga naqsh tushirish va bo‘yash uchun ishlatiladi.
- b) jilo berish uchun.
- v) nusxa ko‘chirish uchun ishlatiladigan xoka.
- g) to‘g‘ri javob yo‘q.

9. SHpaklyovka nima?

- a) rang turlaridan biri.
- b) jilvir qog‘oz.
- *v) yuzalarni tekislash uchun ishlatiladigan.
- g) naqqoshlikda ishlatiladigan belgi.

10. 1-2 raqamli mo‘yqalamlar naqqoshlikda qanday vazifani bajaradi ?

- a) zaminni ranglash uchun.
- *b) siyohqalam va targ‘il tortishga.
- v) laklash uchun.
- g) rang tayyorlash uchun.

2-darajaliy test savollari.

1) Oliy majlis eshiklari qanday yog‘och turidan ishlangan?

- a) YOng‘oq
- b) Rossiya oq qayini
- v) Indoneziya qizil qayrag‘ochi
- *g) Malayziyadant keltirilgan palma daraxti

2) Oliy majlis eshiklari qanday naqsh turi bilan bezatilgan?

- a) Islimiy
- b) gajaksimon
- *v) Zanjira
- g) Barcha javoblar to‘g‘ri

3) Komoliddin Behzod nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan ustalar ko‘rsatilgan bandni belgilang.

- a) I. Jabborov, R Mirtojiev, A Boymatov, D Ro‘ziboev.
- b) A Abdullaev, L. Abdullaev, S Abdullaev, CH .Axmarov
- *v) A .Ilxomov, G‘.Komolov, T.Boltaboev, X.Nazirov
- g) O.Qosimjonov,U.Murodov, M To‘raev, A.Ilxomov.

4) Naqqoshlik ustaxonalarida xar-bir talaba uchun qancha kv metr joy ajratiladi?

- a) 1,1kv/m
- b) 2,2 kv/m
- *v) 3,3 kv/m
- g) 5,4 kv/m

5) Pargor qanday asbob turi xisoblanadi ?

- a) Lineyka
- b) Сыркul
- *v) Leykala
- g) Transportyor

6) Suvbo'yoq tarkibida nimalar mavjud?

- *a) Pigment, elim, asal, zardob,
- b) Tuproq, lak, olif, qon.
- v) Suv, asal, gips, jigar.
- g) kul, sement, lak, hayvon yog'i.

7) SHpatel nima ?

- a) SHpaklyofka surtish uchun ishlatiladigan kurakcha
- b) Andava
- v) Xokandoz
- g) Bo'yoqlarni qirib tashlash uchun ishlatiladigan idish

8) Tempera tarkibida nimalar mavjud?

- a) Tuproq, sement, elim, lak, yog', ganch, gips, alebastr.
- b) Suv, asal, gips, jigar.
- v) Pigment, lak, asal, zardob,
- *g) Pigment, o'simlik elimi, tuxum, glitsirin.
yog'i, asal

9) Igna va bigz naqqoshlikda nima uchun ishlatiladi?

- *a) Axta tayyorlash uchun
- b) Naqsh chizish uchun
- v) Kompozitsiyani yuzaga tushurishga
- g) Siyoh qalam ishlari uchun

10) Moy bo'yoq tarkibida nimalar mavjud?

- a) Tuproq, sement, elim, lak, hayvon yog'i
- *b) Pigment, o'simlik elimi va yog'i, asal, glitsirin,
- v) Pigment, lak, asal, molning zardobi,
- g) Elim, lak, o'simlik

3-darajaliy test savollari.

1. Qalam, mo'y qalam, kalka, guash, tempera, akvarel qaysi san'atning turiga xos asbob - uskunalar va materiallar?

- a) Tasviriy san'at .
- *b) Amaliy san'at .
- v) Xaykaltoroshlik.
- g) Dizayn.

2. Amaliy san'at ustaxonasi qanday talablarga javob berishi lozim ?

- a) Mutaxassislikka oid zamonaviy texnik jixozlar bilan ta'minlangan va texnika xavfsizligi qoidalariga to'liq javob bera oladigan
- b) Xonaning usti berk , yorug' , talabalar ishlashi uchun qulay bo'lishi kerak
- v) O'tkir ish qurollari g'ilofda, shkafda saqlanishi lozim
- g) Hamma javob to'g'ri.

3. Amaliy san'at fanlarida texnika fositalari va o'quv qurollaridan qanday foydalanish kerak ?

- a) To'g'ri foydalanish kerak
- b) Extiyotkor bulish kerak
- *v) Mehnat kodekslariga va texnika havfsizligi qoidalarga rioya qilgan holda.
- g) Joyida aniq vazifadan kelib chiqqan holda

4. Xonada yong'in xavfsizligiga qarshi qanday choralar qo'rish kerak ?

- a) YOng'in chiqarimaslik kerak
- b) YOng'inning oldini olish kerak
- v) Xonada yong'in chiqishi bo'lgan vositalardan oqilona foydalanish kerak
- g) Xona yong'inga qarshi qurollangan bo'lishi kerak.

5. Fanda ishlatiladigan o'quv qurolar va asbob uskunalar qanday saqlanadi?

- a) Qonun qoidalarga rioya qilgan holda
- *b) O'zining o'quv qurollari va asbobuskunalarni ishlatib joyiga quyib qo'yish.
- v) Oddiy
- g) Hamma javob to'g'ri .

6. Havfsizlik texnikasi nima?

- a) Havfni oldini olish, qulay shart-sharoit yaratish va xavfsizlikning samaradorligini oshirish
- b) Havfsizlik texnikasini bilishi shart emas
- v) Texnika xavfsizligini ko'ra bilish
- g) To'g'ri javob yo'q.

7. YOng'in havfsizligi nimani tushunasiz ?

- a) YOng'in kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik
- *b) YOng'inga yo'l qo'ymaslik chora tadbir rejalarini ishlab chiqish va oldini olish.
- v) Tegishli xududlarda yong'in shitlarining mavjudligi .
- g) Hammasi to'g'ri.

8. Elektor tokida ishlaydigan asboblardan foydalanishda talabalar nimalarga e'tibor qilmog'i lozim?

- a) Tok o'tkazadigan qismlarga, talabalar tasodifan tegib ketishi va xafli masofaga yaqinlashmasligi.
- b) Kuchlanish ta'sirida izolatsiya natijasida kirgan karis kojux kabi detallarga qo'l bilan tegmasligi.
- v) Toki o'chirib qo'yilgan o'tkazgichlarda, talabalar ishlash jarayonida kuchlanishni paydo bo'lishi.
- *g) a, b, v qatordagi javob to'g'ri.

9. O't o'chirish vositalariga nimalar kiradi?

- a) Ognatushitel, qum .
- b) Bolta, kirka, lopatka.
- *v) suv, muz, tuproq.
- g) .

10. Ishlab chiqarishlar yong'in jig'atdan havfsizlik darajasiga ko'ra necha koteqoriyaga bo'linadi?

- *a) 6 ta
- b) 9 ta
- v) 5 ta
- g) 7ta

Lug‘at

Andaza – (fors. Tojikcha – o‘lchov, son, hajm, miqdor, trafaret, ruscha – merka, shablon) – shakl ko‘chirish uchun qo‘llaniladigan (qog‘oz, karton, faner, po‘lat, tunua va hokozolardan tayorlangan) maxsus o‘lchagich. Qo‘qonda o‘lchak va istak deb ham ataydilar. Tunukasoqlikda va misgarlikda – taxta, tunuka yoki misning bir qismini buyum yasash uchun kesib olish – maqsadida ustiga andazani qo‘yib chizib olish – andazalash deyiladi.

Axta – naqsh yoki biror rasmni shaffof (kal’ka) qog‘ozga chizib, chiziq yo‘llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andaza. Xorazmda uni ulgi, Buxoroda so‘zana deb yuritadilar. Ilk davrlarda ustalar sirga to‘g‘ridan – to‘g‘ri chizib, o‘yib ketganlar, keyinchalik axta orqali tasvirni tushirish qulayligini bilib foydalanib kelganlar.

Bo‘yoq – yupqa qatlami qurigandan so‘ng shaffof bo‘lmagan, sirtini emiruvchi moddalardan saqlaydigan va unga chiroyli tashqi ko‘rinish beradigan parda hosil qiladigan modda. Moyli bo‘yoqlar, guash’, akvarel’, tempera va boshqa bo‘yoq turlari mavjuld. Bo‘yoqlar qog‘oz, karton, tunuka, gazmol, yog‘och va boshqa materialni buyumlarni bo‘yash uchun ishlatiladi. Har bir bo‘yoq turi o‘ziga xos xususiyatga va ishlatish texnologiyasiga ega. Bo‘yoqlardan bo‘yoqchilikda, texnikada, xalq amaliy san’atining ko‘pgina turlarida keng foydalaniladi.

Gulqalam – naqshlarni bo‘yash va pardozlash uchun ishlatiladigan yumshoq mo‘yqalam turi. Gul qalamlar bo‘rsiq, olmaxon, savsar kabi hayvonlarning yungidan tayorlanadi.

Dastgoh – duradgorlik tunukasoqlik va boshqa ishlarda ishlatiladigan maxsus ustol.

Duradgor elimi – ruscha “stolyarnyy kley”, yog‘och materiallarni bir-biriga elimish uchun ishlatiladi. Duradgor elimi go‘shlardan, suyaklardan tayorlanadi. Elimlar plita shaklida, moshga o‘xshash donacha holda hamda boshqa shaklda tayorlanadi.

Jilvir qog‘oz – ruscha shukurka, tabiiy va sun‘iy abraziv materiallari, ya‘ni tog‘ jinslari kvars, kremen‘, korund, shisha gemotit va boshqa materiallarni maydalab, mato yoki qog‘ozga yopishtirib tayorlagan maxsus material.

Jomakor – ish vaqtida kiyiladigan maxsus kiyim.

Juja - qizil (gul) kesak. Ganchkorlikda rangli ganch tayyorlashda ishlatiladigan qiliz kesak. Qizil rangni juja deb ham ataladi.

Zamazka – taxta yoriqlariga va deraza romlariga yopishtiradigan xamirsimon qorishma.

Kal‘ka – **shaffof qog‘oz** – (fransuzcha-kalgus so‘zidan olingan) chizmachilik, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi va boshqalarda nusxa ko‘chirishda ishlatiladigan shaffof qog‘oz yoki gazmol. CHizmadan tush hamda yorug‘lik vositasida ko‘plab nusxa ko‘chirish uchun maxsus modda shimdirilgan va kalandrlangan qog‘oz yoki gazmol (kalka). Kalandrlanmagan shaffof qog‘oz qalamda nusxa ko‘chirish uchun ishlatiladi. Naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganch o‘ymakorligiva boshqa xalq amaliy san‘ati turlarida axta (gugi) tayyorlashda ishlatiladi.

Karton – qalin qog‘oz. Zichligi har hil bo‘ladi. Bir qatlamli va ko‘p qatlamli xillari ham bo‘ladi. Og‘irligi 250 g/m² dan og‘ir bo‘lsa karton, engil bo‘lsa qog‘oz deyiladi.

Lazur – havo rang, zangori bo‘yoq.

Lok – sirtga surtilganda qotib, yaltiroq qattiq parda hosil qiluvchi organik moddalar aralashmasi.

Mag‘zi soxta – (pape-mashe) fransuzcha pape-mashe, ya‘ni ezilgan qog‘oz degan ma‘noni bildiradi.

Mo‘yqalam – qilqalam, naqqoshlikda rassomchilikda bo‘yoqning qog‘oz, ganch, yog‘och, karton va boshqalarga tasvir solish, bo‘yash, chizishda ishlatiladigan asbob.

Pargor – (ruscha sirkul) bir uchi sharnirli biriktirilgan ikkiyoqli chizmachilik asbobi bo‘lib, bir uchi qalam sterjen ikkinchi uchida nina o‘rnatilgan bo‘ladi.

Pista ko‘mir – yog‘ochni havosiz kuydirishdan hosil bo‘ladigan yuqori uglerodli qattiq g‘ovak mahsulot.

Sinka – mayda unga o‘xshagan mayie havo rang pigment. Uni ganch o‘ymakorlar ba’zi hollarda xoka tayyorlashda va rangli ganch tayyorlashda ishlatiladi.

SHablaon – namuna, shtamp, tarafaret. Bir shakldagi narsalar tayyorlash uchun yasalgan namuna.

SHisha jilvir – (ruscha shkurka steklyannaya), maydalangan shishadan tayyorlanganjilvir qog‘oz.

Qayroq charx – kesuvchi asboblarning uchlarini, tig‘larini charxlash, qayrash yo‘li bilan o‘tkirlash uchun ishlatiladigan asbob.

Qayroqtoshlar – asboblarni charxlashda ishlatiladigan maxsus toshalar. Qayroqtoshlar yirik, mayda, juda mayda turlarga bo‘linadi.

Qaychi – qog‘oz metaltaboqlarni qirishda ishlatiladigan asbob.

Qalam – yunoncha qamish so‘zidan – ko‘mir, grafit, qo‘rg‘oshin, quruq bo‘yoqdan qilingan.

Qalamdon - juzdon, naqqoshlar, rassomlar qurollari saqlanadigan idishcha.

Hal – biror naqshga (tasvirga) tayyorlangan tilla yoki kumush bo‘yoq yoki alyuminiy, jez, rux, qalay, kumush hamda oltinlardan tayyorlangan kukun.

Rivoyatlar

Ho'l yog'och

Usta Mirzaqulning naql qilishlaricha, bir yog'och ustasi suvda oqib kelayotgan ekan. Suv toshkinini ko'rib, vaximaga tushgan boshqa bir kishi ustani qutqirib: "Bir uy qurib bermaysizmi?" - debdi. Usta undan taxtangiz hulmi, quruqmi? - deb surishtiribdi. Haligi kishi "hul" deb javob beribdi. Usta: "Taxtang ho'l ekan... nega meni nutqarding, hul taxtadan buyum yasashdan ko'ra suvda oqib ketganim ma'qul edi",- degan ekan.

Zanjiri chashmi bulbul

O'tgan zamonda bir podshoning hushrui qizi bo'lgan ekan. U misgar ustaning o'g'lini sevib qolibdi. Bu voqea elga ovoza bo'libdi, podsho darg'azab bo'libdida, yigitning otasini zindonga tashlabdi. Yigit esa kunu-tun istirobda yangi naqsh izlabdi. Nihoyat, kumush barkash hoshiyasiga otasini bandi etgan zanjirning tasvirini naqshlabdi. Misgarning o'g'li podsho irodasiga shak keltiribdi, deb yigitning boshini tanasidan judo etishni buyuribdi. Ana shunda bir donishmand usta yigit naqshlagan barkashni saroyga keltiribdi. «Podshohim»,- debdi donishmand - yosh yigitning bir qoshiq qonidan keching. U zanjir halkasi ichida bulbulning ko'zini tasvirlamoqchi bo'lgan ekan. Lekin yasovullar uni sudrab kelishgan. SHu sababdan bola paqir bunga ulgurolmay qolgan. U shunday debdiyu, zanjirlar xalqasi orqasiga nuqtalar qo'yib chiqibdi. Naqshning huddi bulbulning ko'ziga o'xshab qolganini ko'rgan podsho yigitni ozod etadi. SHu-shu bu naqshni «Zanjiri chashmi bulbul» deydigan bo'lishibdi.

Tesha, randa va arra hikoyati

Masalan hayotiy haqiqatni majoziy tarzda tasvirlashning ajoyib vositasi sifatida ulug' ijodkorlarga hamisha qo'l kengligi ma'lum. Jumladan, Xasanxoj Nisoriy o'z "Muxakkiri axbob" ida Mavlono Kasriy degan buxorolik shoir haqida ma'lumot berar ekan, uning qasbi najjor (duradgor) ekanini aytib, shu kasbga oid asbob-uskunalar vositasida uning xaslatlarini, fe'l atvorini tasvir etadi.

"Qaysi ishga qo'l urmasin, uni boshqalardan ortiq darajada uddalagan. Insof qoidasiga amal qilib, teshaga o'xshab hadeb o'z tomoniga tortavermas, randaga o'xshab o'z manfaatidan quruq ham qolmas, balki arra yanglig' adlu insof, o'rtamiyonalik bilan ish tutar ekan". Nisoriy bu haqda shunday nazm keltiradi:

CHun tesha ba sui xesh doim matarosh,

CHun randa zi kori xesh bebahra mabosh.

Payvatsa chu arra bosh dar ilmi maosh.

CHeze sui xud mekash va cheze meposh.

YA'ni: teshadek doim o'zing tomon yunaverma, randa kabi o'z ishingdan bebaxra ham qolma. Tirikchilik ilmida arraga o'xsha, biron narsani o'zingga ham tort, biron narsani boshqalar tomon ham soch.

Yolg'onchi usta

Bir duradgor ishlab bir kop pul topibdi. Pulni ko'tarib uyga ketayotsa oldidan Xizr bobo chiqib qolibdi va undan so'rabdi:

-O'g'lim nima olib ketayapsan?

Usta qopda pul olib ketayotganligini bekitib: Durodgorda nimayam bo'lardi, payrahada, ota - debdi.

Xizr duoga qo'l ochibdi. Xudo payraxangga baraka bersin bolam.

CHol ketgach usta qopni ochib qarasa - qop to'la payraxa emish.

SHu-shu durodgor usta ishlaganda payraxa ko'p chiqar emishu - lekin pul kam tusharmish.

Biletlar

1-bilet

1. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar haqida ma'lumot bering.
2. Asbob uskunalarini ishlatish jarayonidagi texnika xavfsizligi.

2-bilet

1. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish texnologiyasi.
2. Naqqoshlik fanida qanday duradkorlik uskunalaridan foydalaniladi?

3-bilet

1. Duradgorlik dastgoxlarida qanday ishlar bajariladi.
2. Bolg'adan naqqoshlikda nima uchun foydalaniladi?

4-bilet

1. Dast arra qanday xollarda ishlatiladi?
2. Asbob uskunalaridan foydalanish jarayonida gigiena qoidalaridan foydalaniladimi?

5-bilet

1. Duradgorlik dastgoxlarida burchaklardan qanday foydalaniladi?
2. Arradan naqqoshlikda nima uchun foydalaniladi?

6-bilet

1. O'lchash va rejalash deganda nimani tushunasiz?
2. CHiz'a arraning vazifasi haqida gapirib bering.

7-bilet

1. Elektrolar dastgoxlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Qo'l arraning qanday turlari mavjud?

8-bilet

1. Mix sug'urishda qanday uskunalaridan foydalaniladi?
2. Burchak arra qanday vazifani bajaradi?

9-bilet

1. Elektrodastgoxli arralar haqida nimalar bilasiz?
2. CHasrakli arra va uning vazifasi nimalardan iborat?

10-bilet

1. Randalardan to'g'ri foydalanishda nimalarga ahamiyat beriladi.
2. Lobzik vazifasi nimalardan iborat?

11-bilet

1. Lobzik bilan ishlashda foydalaniladigan maxsus moslama haqida nimalar bilasiz?
2. Duradgorlik dastgoxlarida qanday joylashtirilgan bo'lishi kerak?

12-bilet

1. O'lchash va rejalash asboblari sirasiga qaysi asboblardan kiradi?
2. Elektrodrel haqida nimalarni bilasiz?

13-bilet

1. Ruletka, yig'ma, metr va masshtabli chizg'ich haqida nimalar bilasiz?
2. Daraxt turlari haqida nimalar bilasiz?

14-bilet

1. Duradgorlikda go'niya qanday ahamiyatga ega?
2. Sirkul va shtangensirkul asboblardan yordamida qanday ishlar bajariladi?

15-bilet

1. Akvarel bo'yog'ini o'ziga xos tomonlari
2. Tillaxal ishlatish texnologiyasi

16-bilet

1. Guvash bo'yog'ini o'ziga xos tomonlari
2. Mo'yqalam turlari

17-bilet

1. Tempera bo'yog'ini o'ziga xos tomonlari
2. Lok va uning turlari

18-bilet

1. Moy bo'yog'ini o'ziga xos tomonlari
2. Andaza va undan foydalanish usullari

20-bilet

1. SHpakilofkadan foydalanish texnologiyasi
2. Bo'yoqni suyultiruvchi suyuqliklar

22-bilet

1. Tabiiy bo'yoqlar va undan foydalanish yo'llari
2. Axta tayyorlash va undan foydalanish yo'llari

23-bilet

1. Qumqog'oz va uning turlari
2. Pista ko'mir va undan foydalanish

24-bilet

1. Xokani tayyorlash texnologiyasi
2. Kalka qog'oz va uning turlari

25-bilet

1. Bo'yoq turlari va ulardan farqlari
2. Mo'yqalamdan foydalanish texnologiyasi

3.2. Mahalliy hom-ashyolarga ishlov berish metodikasi

DARS REJASI.

O'tish sanasi:

Fanning nomi: LOYIHALASH

Mavzu: Quticha yuzasiga naqsh kompozitsiyasini izlash hamda chizib yakunlash bosqichlari.

Darisning talimiy maqsadi: Quticha yuzasining o'lchamini olish unga naqsh kompozitsiyasini qonun qoidalari asosida chizishga o'rgatish. Kompozitsiya tuzush orqali o'quvchilarning dunyoqarashini shakillantirish. Etika estetik jihatdan tarbiyalash. Naqqoshlikda pardoz turlari ularni ranglash texnologiyalari naqqoshlikda asbob-uskunalaridan foydalanishni o'rgatish. Naqqoshlik darislarida Ustoz va shogird ananalaridan umumli foydalanish. Pardoz turlarini bir-biridan farqi va kompozitsiyaning naqshga qarab pardozlanishni o'rgatish. Naqqoshlik san'atida ustalar ishlaridan namunalar ko'rsatish orqali ardoz turlari:

Targ'il edirma pardozlar haqida malumot berish. Ustalarning ishlarida qaysi pardoz turlaridan keng foydalanilgani haqida malumot berish. Padoz turlarini ko'rgazmali qurollar orqali tushuntirish naqqoshlik maktablarida qanday pardoz turlaridan foydalanishlari haqida malumot berish. Hozirgi kunda naqqoshlik san'atiga bo'lgan etibor va hurmat haqida fikir almashinish.

Darisning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash malakalarni shakillantirish. Ustoz va shogird ananalari orqali o'quvchilarda ustozga hurmat shogird vazifalari odobi va fazilatlarini shakillantirish. Buyuk naqqosh ustalar ijodini o'rganish orqali naqsh namunalari to'g'ri tanlashga o'rgatish o'quvchilarda o'z kasblariga qiziqishlarini yanada oshirish. Naqsh namunalari tuzish ularni ranglash va pardozlash orqali o'quvchilarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Darisning rivojlantiruvchi maqsadi: o'qitishning zamonaviy usullari orqali o'quvchilarni mustaqil ishlash va mustaqil fikirlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Test Sayohat Klaster BBB usulini o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib naqqoshlik va uning maktablari namoyandalari naqsh turlari kompozitsiya tuzish usullari va ularning pardoqlash yullari dars davomida tushuntirib beriladi. Buning uchun biz yangi uslibdan foydalanamiz.

Dars o‘tkazish joyi: naqqoshlik ustaxonasi.

Dars turi: Noananaviy (maruza amaliy)

Dars uchun ajratilgan vaqt: 2 soat.

Darsni jihozlash: Kurgazmali vositalar texnik vositalar.

Tashkiliy qisim: 5 daqiqa

Salomlashish o‘quvchilarni yuqlama qilish navbatchini aniqlash o‘quvchilarning darisga tayyogarliklarini tekshirish.

Darsni mustahkamlash: Test

Uyga vazifa: Pardoq turlari.

O‘qituvchi:

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar	Ajratilgan vaqt	Mashg‘ulot mazmuni	Metod
Tashkiliy	5	Salomlashish o‘quvchilarni yuqlama qilish navbatchini aniqlash o‘quvchilarning darisga tayyogarliklarini tekshirish	
O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	15	Naqsh va ularning turlari mavzusi bo‘yicha test savol-javobi o‘tkazish va baholash	
YAngi	45	Quticha yuzasiga naqsh	

mavzu bayoni		kompozitsiyasi tushish ranglash va pardoqlash. Klaster (ranglash bosqichlari)	
YAngi mavzuni mustahkamlash	10	Sayohat usulidan foydalanib yangi mavzuni mustahkamlash.	
Darsni yakunlash	5	BBB usulidan foydalanib darsni yakunlash uyga vazifani tushuntirib baholarni elon qilish.	

X U L O S A

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shahardardagi har bir arxitektura yodgorligi bir buyuk asar, nodir qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida.

SHuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'at namunalari ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amalyot uslublarini joriy etish, tabiiy xomashyolar bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga dahldor etish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida ya'ni maktab, kasb-hunar kollejida, oliy o'quv yurtlarida o'quvchi yoshlarni siyosiy-g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

SHunday ekan, o'zbek xalq amaliy bezak san'ati va uning turlari bo'lmish naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, kulolchilik, misgarlik, yog'och o'ymakorligi va

darslarda o'qituvchi barcha imkoniyatlardan samarali foydalanib, o'z ishlarini rejali tashkil etish va tarbiyaning hamma tarkibiy qismlarini kompleks amalga oshirishga erishishi kerak.

O'zbek xalq amaliy san'ati darslarning samaradorligini oshirish uchun texnika vositalaridan foydalanib videofilm elektron versiya, elektron darsliklardan namoyish qilish, zamonaviy axborat resurslaridan, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o'quv metodik ko'rgazmalar tayyorlash, ekskursiv tanlovlar, viktorinalar o'tkazish, hozirgi zamon pedagogik-psixologiyasining ilg'or yutuqlariga suyangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv moddiy bazasini mustahkamlash, mahalliy materiallardan foydalanish, ko'rgazmalar tashkil etish, xonalarni zamonaviy jihozlanish, ta'lim-tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun didaktik tamoyillari, ya'ni ta'limni tarbiyalovchi tamoyili, ilmiylik tamoyili, muntazamlik tamoyili va ketma-ketlik, onglilik-faollik, ko'rgazmalilik, o'qitishning qatnashuvchilar kuchiga, yoshiga mosligi va boshqa prinsiplarga rioya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati ham san'at, ham hunar.

U asrlar mobayniad ota-bobolarimiz tomonidan ko'z qorachig'idek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san'ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlanib kelayotgan bu amaliy san'at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero, o'yib, chizib, tirnab, bo'yab ishlangan, takrorlanmas naqshlar inson idrokining, inson his-tuyg'ularini ifodasidir. Bamisoli yog'och, suyak, qora loy, ganch va boshqalarga jo etilgan hayot qo'shig'idir. Hayot qo'shig'i esa zamonlardan-zamonlarga baralla yangrayveradi.

Xulosa qilib aytganda asrlar davomida yaratilgan ulkan madaniy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy san'ati keng tarqalgan turlarining o'ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlari mangu yo'qolish bo'sag'asida. Ana shu sababli bu noyob san'at durdonalarini saqlash, ularni yoshlarga o'rgatish muhim vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - Toshkent: O'zbekiston, 1995
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent, 1992.
3. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktabi konsepsiyasi. - Toshkent: Xalq ta'limi, 1992. - 1-son.
4. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.T.: O'zbekiston, 2000.
5. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Avedova N.A. Toshkent o'ymakorligi. – Toshkent: O'z dav. Badiiy adabiyot nashr, 1961. -88 b.
7. Azimov I. Farg'ona vodiysining arxitektura yodgorliklari. - Toshkent: O'zbekiston, 1986. - 71 b.
8. Azimov I. O'zbekiston naqshu-nigori. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashri, 1987. - 144 b.
9. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. - Toshkent, 1992.
10. Asotirlar va rivoyatlar. - Toshkent: YOzuvchi, 1993.
11. Anuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. - Toshkent: O'qituvchi, 1969.
12. Barcha mohir qo'llar uchun 22 ish. – Toshkent. O'qituvchi, 1967. - 278 b.
13. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. - Toshkent: Mehnat. 1991. - 384 b.
14. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. - 48 b.
15. Bulatov S.S., Ergashev A. Hunar - zar, hunarmand zargar. - Toshkent, 1994.
16. Bulatov S.S. Ustozning shaxsiy va kasbiy fazilatlar. - Toshkent: Xalq ta'limi jurnali, 1998. - 1-son. - 64-67b.
17. Gadoev P. Oq saroy. – Toshkent. Xalq so'zi. - 1995. - 24 oktyabr
18. Duolarning xosiyatlari. - Toshkent: Nur, 1992.
19. Zohidov P.SH. Me'mor san'ati. – Toshkent. Adabiyot va san'at nashr, 1978. - 102 b.
20. Zohidov P.SH. Zeb ichra ziynat. - Toshkent. Adabiyot va san'at nashr, 1985. – 118 b.
21. Zohidov P.SH. Me'mor olami. - Toshkent: Qomuslar bosh taxririayati, 1996. - 238 b.
22. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki prozasi. - Toshkent. 1981
23. Ipak yo'li afsonalari. - Toshkent: Fan, 1993.
24. Karimov X. Usto Qodir.- Toshkent: Adabiyot va san'at nashr, 1981-120 b.
25. Koeyndlin L.N. YOg'ochsozlik ishlari. - Toshkent: O'qituvchi, 1978.- 300 b.
26. Malinkovaya L.YU. Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari. - Toshkent: O'zbekiston, 1979. - 100 b.
27. Mirzaahmedov M.H. Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1976. - 24 b.
28. Mirzaahmedov M.H. Materiallarga badiiy ishlov berish. - Toshkent: O'qituvchi, 1986.

29. Miraahmedov M.H., Ergashev S. YOg‘och o‘ymakorligi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1995. - 64 b
30. Muranov B.I. Umumta’lim maktablarida mehnat ta’limi mashg‘ulotlarini taxminiy rejalashtirish. - Toshkent: UBMTMU, 1996. -68b.
31. Mo‘‘jiza yaratish san’ati. Bosh muallif A.S.O‘rolov. - Toshkent: Mehnat, 1996 yil.
32. Mo‘minov I.M. Temuriylar davri O‘rta Osiyo san’atining paydo bo‘lishi va taraqqiy etish tarixiy ildizlari haqida// TAT. - 3 tomlik. - Toshkent: Fan, 1969. - 48 b.
33. Odobnoma. - 6,7,8,9 sinflar uchun. - Toshkent: O‘qituvchi, 1996-1999.
34. Oydinov N. Rassom o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
35. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. -Toshkent: Fan, 1977. - 149 b.
36. Hasanov R. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limi konsepsiyasi. - Toshkent, 1995. – 12 b.
37. Haqqulov A. Ta’mir san’ati. - Toshkent: Mehnat, 1991. - 200 b.
38. YUz bir hadis. - Toshkent: Mehnat, 1991.
39. G‘ulomov S.S., Bulatov S.S.SHarqona usta-shogird odobi. - Toshkent, 2000.
40. Qissai Mashrab. - Toshkent: Yozuvchi, 1993.
41. Qosimov K.K. YOg‘och o‘ymakorligi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1990. - 160 b.
42. Mengliev B. Falsafa nechanchi o‘rinda turadi// ma’rifatgazetasi. - 2004, 10 mart
43. Bulatov S.S. Kulolchilik buyumlarining xosiyatlari //Xalq ta’limi. -1998. - 87-90 b.
44. Pugachenkova G.A. Isskustvo Turkmenistana. M., 1967.
45. Hakimov A.A. Izobrazitelno-Ornamentalnye obrazы i motivы prikladnogo isskustvo // Xudojestvennaya kultura Sredney Azii v X-XIII vv. Tashkent, 1983

ILOVALAR:

1-ILOVA. LUG‘AT

Miyona namoyon – maloe panno, niterer jilogo doma.	Miyena namoyon – a small panel, interior of a dwelling hose. Bukhara, XIX century.
Namoyon - panno.	Namoyon – a panel.
Xontaxta - stolik.	Khantakhta –a small table.
Eshik - dver.	Eshik – a door.
SHift – potolok.	A ceiling – a fragment
Falamdon – penaly.	Kalamdon – pencil –cases
Quticha – shkatulka.	Kuticha –a casket.
Egar – sedlo.	Egar – a saddle seat.
CHang – muzykalnyy instrument.	Chang – a musical instrument.
Stolcha –stolik.	A small table.
Nosqovoq – tabakerki.	Noskovok – snuff-boxes.
Lagan – blyuda.	Lagan – a dish.
Xum – korchaga.	Khum – korchaga.
Badiya – glubokoe blyudo na podstavke.	Badiya – a deep dish on a salver
Oftoba – sosud dlya vody.	Oftoba – a water-vessel
Kuvacha-kuvshin.	Kuvacha – a jug
Vaza – .	A vase – “V. I.Lenin’s Birth Centenary”.
Tuya va bo‘taloq – verblyuditsa s verblyujonkom.	A camel with a baby camel.

Hushtak –igrushki-svistulki.	Whistles (toys).
O‘yinchoq – igrushki.	Toys.
O‘yinchoq va qiz – muzыkant i devushka.	A musician and a girl.
Ota –otets.	A father.
Xovancha –stupka.	Rhovancha – mortar.
Sarxumi – krujka.	Sarkhumi – a mug.
CHilim – kuritelnyy pribor.	Chilim – a smoking-set.
Dastsho‘y – tazik dlya umывaniya.	Dastshui – a water-basin.
Qulf – zamok.	Kulf – a lock.
CHoydish – sosud dlya kipyacheniya vody.	Choidish – a vessel for boiling water.
CHirog – svetilnik.	Chirog – a lamp.
Manqaldon – jarovni.	Mankaldon – braziers.
Qumg‘on – sosud dlya vody.	Kumgan – a water-jug.
Lali – padnos.	Laali – a tray.
Pichoq – noji.	Pichoq – knives.
Baxmal – barxt.	Bakhmal – velvet.
SHoxi ko‘gra – pokыvalo.	Shokhi kurpa – a bed-spread.

Taqriz

1.Rejaning to‘g‘ri tuzilganligi, mantiqiyligi

2.Mavzuda ko‘tarilgan muammoning nazariy asoslanganligi

3.Ishning metodik axamiyati

4.Bitiruv malaka ishida muallif ish tajribasining yoritilishi

5. Mavzuni dars jarayoniga tadbiq etish usullarining mavjudligi

6. Adabiyotlar ro‘yxatining mazmunga mosligi

7.Bitiruv malaka ishidagi kamchiliklar

1.

2.

3.

4.

8.Taqrizchining tavsiyalari

9.Taqrizchi

(ismi va familiyasi ilmiy darajasi)

10. ishga berilgan baho

11. Imzo

Sana